



Tadqiqot.uz

ÖZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA XORJİY OLİY TA'LIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-ØUITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA İQTİDORLI TALABAHLAR

AVGUST

No 79  
TOSHKENT

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANG O'ZBEKİSTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERİALLAR TO'PLAMI



CONFERENCES.UZ



ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР  
2-ҚИСМ

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-2

NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC  
RESEARCH PART-2

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

### «ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 79-кўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2025 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 105 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харақатлар стратегияси — Таракқиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютукларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

#### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

#### **3.Тарих саҳифаларида изланишлар –**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

#### **5.Давлат бошқаруви-**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

#### **6.Журналистика-**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

#### **7.Филология фанларини ривожлантириши йўлидаги тадқиқотлар –**



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

### **8. Адабиёт-**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10. Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

### **11. Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15. Мусиқа ва ҳаёт-**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **17. Физика-математика фанлари ютуқлари -**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

### **18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишилар –**

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

### **19. Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

### **20. Ветеринария**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **21. Кимё фанлари ютуқлари -**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

### **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)



**23.Агропроцессинг ривожланиши йўналишилари -**  
Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

**24.Геология-минералогия соҳасидаги инновациялар -**  
Phd доцент Қаҳхоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География-** Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

**Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.**

© Муаллифлар жамоаси

© Tadiqiqot.uz

**Page maker/Верстка/Сахифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакции журнала.**  
[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadiqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of**  
[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

**Yangi O‘zbekiston — yangi sud prinsipi doirasida amalga oshirilayotgan  
islohotlar zamirida inson manfaatlari**

**Abrayev Xasan Choriyevich**

Qumqo‘rg‘on tumanlararo iqtisodiy  
sudi raisi

**Allaberdiyev Jasurbek Xolmo’min o’g’li**

Qumqo‘rg‘on tumanlararo iqtisodiy  
sudi devonxona mudiri

**Annotatsiya:** mustaqil sud tizimi adolatli jamiyatning asosiy ustuni hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, ayniqsa, unga kiritiladigan investitsiyalar sud tizimiga bevosita bog‘liq. Sud odil sudlovning oliy nuqtasi, shu sababli uning rolini oshirish esa huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi qonuniy jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta’minalash bo‘yicha izchil ishlar olib borildi. Olib borilgan ishlar natijasida odil sudlovni amalga oshirish jarayonida shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi. Shuningdek, bugungi kunda sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish institutini takomillashtirish orqali protsessual kodekslarga fuqarolar uchun qulay hamda soddalashtirilgan tartibni yaratishga qaratilgan tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

**Kalit so‘zlar:** sudlar mustaqilligini kuchaytirish, “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili, “Xabeas korpus” instituti, Sudlar tizimida “yagona darcha” tamoyili, kredit (ipoteka) shartnomasi, Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, charm-poyabzal sanoat zonalarini boshqarish direkssiyalari.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston huquqiy sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar mamlakatda sud tizimini modernizatsiya qilish va inson huquqlarini kengroq himoya qilishga qaratilgan. Xususan, oxirgi yillar davomida qabul qilingan yangi qonunlar, kodekslar va normativ hujjatlar mamlakatning huquqiy muhitini tubdan o‘zgartirish maqsadida qabul qilindi.

Shuningdek, bu islohotlar bilan sudlar mustaqilligini kuchaytirish, jinoyat va huquqbuzarliklar bilan kurashishda yangi usullarni joriy etish, huquqiy ta’lim va axborot tizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, O‘zbekiston huquqiy tizimi xalqaro standartlarga moslashib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda yanada samarali va ishonchli bo‘lishiga erishildi.

Ma’lumki, har bir inson uchun mustaqil va xolis sudga ega bo‘lish huquqi ta’milangan. Ushbu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi qo‘silgan boshqa xalqaro huquq hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Faqat mustaqil sud har qanday fuqaroning ishini



adolatli va oshkora tarzda ko‘rib chiqish orqali uning haq-huquqlarini himoya qilishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun asos bo‘ldi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishida: mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish maqsadida quyidagi sud-huquq tizmida quyidagi o‘zgarishlar qilindi:

Ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasini kengaytirish;

“Xabeas korpus” institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish;

Sudlar tizimida “yagona darcha” tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta’minlash tizimini joriy etish.

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish.

Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo‘llash doirasini yanada kengaytirish va boshqalar.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan ayrim qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

So‘nggi yillarda majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash maqsadida, berilgan mol-mulk ustidan kreditorlarning huquqlarining ustuvorligini ta’minlash, garovga qo‘yilgan mol-mulkni auksion orqali sotish jarayonlarini soddallashtirish va shuningdek, garov bilan ta’minlangan majburiyatlarni suddan tashqari tartibda undirish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, amaliyotda kredit (ipoteka) shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning qarzdor tomonidan vaqtiga vaqtiga bilan yoki lozim darajada bajarilishini, kreditorning garov bilan ta’minlangan talablarining qanoatlanishini, sud tartibida va suddan tashqari tartibda undiruvni garov narsasiga qaratishni,



shuningdek, garovga oluvchining garov narsasiga bo‘lgan huquqlarining ustuvorligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Fuqarolik kodeksi “746<sup>1</sup>-modda. Kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish” haqida modda bilan to‘ldirildi. Unga ko‘ra kreditni muddatidan oldin sud tartibida undirishda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kreditor dastlab qarzning belgilangan muddatda qaytarilmagan qismini undirish uchun sudga murojaat qilishi, bunda agar qarz oluvchi muddati o‘tgan qarzni to‘liq to‘lamagan taqdirda, kreditor kreditning qolgan barcha summasini muddatidan oldin qaytarish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilandi.

Demak javobgar qarzdorlikni ixtiyoriy bartaraf etmasa, birinchi navbatda kreditorlar uni muddati o‘tgan qismiga nisbatan sudga da’vo kiritadi. Bu tadbirkorlik subyektlar uchun ham qulaylik yaratadi.

Bundan tashqari, “Sud va boshqa organ hujjatlarni ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunning 54-bandи quyidagi tartibda tahrir qilindi: Garovga qo‘yilgan mol-mulk bilan ta’milangan majburiyatlarni ijro etishda undiruv ushbu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, garovga qo‘yilgan mol-mulk sud tomonidan majburiy tarzda baholashdan o‘tkaziladi hamda ushbu kimoshdi savdosidagi boshlang‘ich realizatsiya qilish narxi sud qarori bilan baholash to‘g‘risidagi hisobotda aniqlangan miqdorda belgilanadi.

Bundan maqsad garovga qo‘yilgan mol-mulk sud tomonidan baholanadi. Bu baholash mol-mulkning hozirgi bozor qiymatini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Baholash natijasida mol-mulkning qiymati va shuningdek, undirish uchun boshlang‘ich narxi (realizatsiya qilish narxi) aniqlanadi. Bu ham garov mulkining amaldagi bozor narxida sotilishiga yordam beradi.

O‘zbekiston sud-huquq tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, asosan, sudlar mustaqilligini mustahkamlash, qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va huquqiy adolatni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonlar natijasida, sudlarning samaradorligi oshib, fuqarolarning huquq va erkinliklari kengroq himoya qilinmoqda, shuningdek, iqtisodiy va huquqiy muhit yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy va majburiyatlarni ijro etish sohasida ham qonunchilikda muhim o‘zgarishlar bo‘lib, ular majburiyatlarningadolatli va oshkora bajarilishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1997 yil 1 mart).
2. O‘zbekiston Respublikasining “kreditorlarning garov bilan ta’milangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayri qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni (2025 yil 22 aprel, 1060-son).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Sud va boshqa organ hujjatlarni ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun (2001 yil 29 avgust, 258-II-son)



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldag'i "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-sonli Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.



## ТАРИХГА НАЗАР. БУХОРО АМИРЛИГИ ДАВРИДА СУРХОН ВОҲАСИДАГИ БЕКЛИКЛАРДА СУД ИШЛАРИ КИМ ТОМОНИДАН АМАЛГА ОШИРИЛГАН ВА УЛАР КИМ ТОМОНИДАН ТАЙИНЛАНГАН?

Р.М.Бегимов

Сурхондарё вилоят суди судьяси

**Аннотация:** Ушбу мақола Бухоро амирлиги даврида Сурхон воҳаси бекликларидаги суд-хуқуқий тизимнинг ташкил этилиши ва фаолияти масалаларига бағишлиланган. Муаллиф тарихий манбалар ва Эшболта Қобулов ҳамда Камолиддин Қобуловларнинг монографик тадқиқотлари асосида XIX-XX аср бошларида Сурхон воҳасидаги суд ишларининг ташкилий тузилишини таҳдил қилган.

**Калит сўзлар:** Бухоро амирлиги, Сурхон воҳаси, Бекликлар суд тизими, қадимда қози ва раислар, Манғитлар давридаги хуқуқ, Бойсун, Денов, Шеробод бекликлари, XIX-XX аср суд ишлари, Ислом хуқуқи татбиқи.

Тарихчилар тарих фанлари доктори, профессор Эшболта Қобулов ва Камолиддин Қобуловларнинг “Манғитлар ҳукмронлиги даврида Сурхон воҳасида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт” номли монографиясида баён этилишича, Сурхон воҳаси бекликлари Бухоро амирлигига тобе этилгач, қисқа вақт ичида бошқарув тартиби тўла амирлик ихтиёрига олинган. Бухоро амирлиги чекланмаган хуқуқка эга **амир** томонидан бошқарилган. Амирликда олий маъмурий ҳокимият **қўшбеги** қўлида бўлиб, у амир йўқ пайтида амирликни бошқариш хуқуқига ҳам эга бўлган. Манғитлар ҳукмронлиги даврида қўшбеги энг олий мансаб ҳисобланган.

Бухоро амирлигига ислом дини ва уни қонун-қоидалар асосида бошқариш лавозими **шайхулислом** лавозимидағи олий дин мансабдори ихтиёрида бўлган. Диний ишларни назорат қилиш мақсадида **ўроқ, судур ва садр** каби учта диний лавозим ҳам жорий этилган.

Суд ишлари назорати **қозикалон** ихтиёрида бўлган, қонун ижроси ва ислом динига эътиқод назоратини **раис** бошқарган, у қозикалон олдида ҳисобот берган.

Бекликларда барча маъмурий-бошқарув хуқуқлари амир томонидан тайинланган **бек** қўлида бўлган. Беклар юқори табақа вакилларидан бўлиб, асосан йирик ер эгалари бўлишган. Амирликда мансаблар қариндошлиқ асосида берилган бўлса ҳам бек лавозими масъулиятли бўлганлиги сабабли оддий фуқаро ҳам бу лавозимга тайинланиши мумкин бўлган.

Бекликнинг суд ишлари **қози** қўлида бўлиб, у ҳам амир томонидан тайинланган. Қози нафақат суд ишларини бошқарган, балки маҳаллий ҳоким фаолиятини ҳам назорат қилиб турган. Амирликда қози-раислар бекларнинг ҳар бир қадамини кузатиб, бу ҳақда Бухорога хабар бериб турганлар. Улар томонидан юборилган хабар ҳеч бир текширувсиз бекни вазифасида озод



қилишга олиб келиши мумки бўлган. Бекни вазифасидан озод қилиш қозини алмаштиришдан осон бўлган. Шу тариқа марказий ҳокимият икки томонлама назоратни йўлга қўйган.

1914 йилда Бухоро амирлигига 67 та маҳаллий қози бўлиб, ҳар бир бекликда амир фармони билан тайинланган 5-12 тагача муфти ҳам бўлган.

Бундан ташқари, маҳаллий бошқарув тизимида диний-миршаблик фаолияти билан шугулланувчи диний уламолар мухим ўрин тутган. Улар уч тоифага бўлинган. Булар қози, муфтий ва раислардир. Бутун Бухоро амирлигига 67 та қози ва 68 та раис фаолият юритган.

Хусусан, Сурхон воҳаси бекликларида бу мансабдорлар қўйидагилар бўлишган: Бойсун беклигига мулла Абдулнаимҳожи - қози, мулла Абдулнозир -раис; Денов беклигига мулла Нуъмон - қози, мулла Муҳаммад Қурбон - раис; Шеробод беклигига мулла Абдураҳмон - қози, мулла Нусратуллаҳўжа - раис. Айрим вақтларда қози ва раис лавозимига бир киш тайинланган. 1914 йилда Амир Олимхон томонидан Шеробод беклигининг қозиси ва раиси этиб мулла Салоҳиддин тайинланганлиги бунга мисол бўлади.

Хуллас, ҳар бир бекликда халқ манфаатини ҳимоя қилиш ёки уларни жазолаш бек, қози ва раис қўлида бўлиб, фақат ўлим жазоси амир фармони или амалга оширилган.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Манғитлар ҳукмронлиги даврида Сурхон воҳасида ижтимоий-иктисодий ҳаёт. Э.А.Қобулов, К.Э.Қобулов. монография. Тошкент “NIF MSH” 2023 йил.

2. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Б.Эшов. Иккинчи китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди” 2019 йил.



## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЎЛИМ ЖАЗОСИНинг БЕКОР ҚИЛИНИШИ ВА АЛМАШТИРИЛИШИ

Шокирова Дилноза Баҳодир қизи  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети Юриспруденция: Бизнес ҳукуки  
йўналиши 2-босқич талабаси  
эл.почта: [shokirovadilnoza484@gmail.com](mailto:shokirovadilnoza484@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақолада жиноий жазони либераллаштириш жараёнида ўлим жазосининг бекор қилиш ва унинг ўрнига умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазосини алмаштирилганлигининг хусусиятлари таҳлил қилинган. Бундан ташқари ушбу жазонинг қўлланилишининг хорижий давлатлар тажрибаси ҳам киёсий таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** ҳукукни муҳофаза қилувчи тизим, ҳукукий давлат, инсонпарварлик тамойиллари, демократик ҳукукий давлат, умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси, инсонпарвар қонун, ижтимоий-иқтисодий давлат, сиёсий давлат.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда амалга оширилаётган демократик ислоҳотларнинг асосий мақсади инсон ҳукуқ ва эркинликларини таъминлашдан иборатdir. Бинобарин, инсон ҳукуқ ва эркинликларини таъминлаш ва уни амалга оширишга оид масала мамлакатда амалга оширилаётган суд-ҳукуқ соҳасидаги ислоҳотларнинг мазмунини ташкил этади. Ушбу жараёнда суд-ҳукуқ соҳасидаги ўзгаришларга, айниқса, фуқаролар ҳукуқ ва эркинликларининг ҳимоясини таъминлашдан иборат бўлган, ҳукукни муҳофаза қилувчи тизимни либераллаштиришга алоҳида ўрин ажратилди.

*Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.Каримов таъкидлаганидек, ‘Мамлакатимизни демократик янгилашнинг бугунги босқичдаги энг муҳим йўналишларидан бири бу – қонун устуворлиги ва қонунийликни мустаҳкамлаш, шахс ҳукуки ва манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган суд-ҳукуқ тизимини изчил демократлаштириш ва либераллаштиришдан иборатdir. Бир сўз билан айтганда, юртимизда ҳукукий давлат асосларини янада такомиллаштириш ва аҳолининг ҳукукий онги ва маданиятини юксалтириш биз учун ҳал қилувчи вазифа бўлиб қолмоқда’* [1].

Айнан шунинг учун ҳам давлат мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб ислоҳотларнинг мазкур йўналишига алоҳида эътибор қаратилганлиги бежиз эмас.

Суд-ҳукуқ ислоҳотларининг муҳим босқичи бу - Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил, 1 авгуустдаги “Ўзбекистон



Республикасида ўлим жазосини бекор қилиш тўғрисида”ги фармонининг қабул қилиниши бўлди. Фармонга асосан, 2008 йилнинг 1 январидан жиной жазо тури сифатида ўлим жазоси бекор қилинди. Ушбу Фармоннинг асосий мөҳияти инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган бўлиб, унда инсонпарварлик тамойиллари ўз аксини топган ва у халқаро ҳуқуқ нормаларига мослиги билан аҳамиятлидир.

Юртбошимизнинг “Ўзбекистон Республикасида ўлим жазосини бекор қилиш тўғрисида”ги тарихий фармонининг ҳуқуқий асосини такомиллаштириш ва уни амалиётда ижросини таъминлаш мақсадида, 2007 йил июнь ойида Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонуни қабул қилинди, Сенат томонидан 2007 йил 15 июнда маъқулланди ва 2008 йил 1 январдан кучга киритилди. Ушбу қонун билан Жиноят, Жиноят процессуал ва Жиноят ижроия кодексларига тегишли ўзгартиришлар киритилган бўлиб, улар мамлакатимизда демократик жараёнларни ривожлантиришга, инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат, адолатли фуқаролик жамиятини барпо этишга, юртимиз обрў-эътибори, шон-шуҳратини жаҳон ҳамжамияти олдида кўтаришга, фуқароларимизнинг конституциявий ҳуқуқларини кафолатлашга хизмат қилмоқда.

Бу ўзгаришлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганлигининг 60 йиллигига бағишенган тадбирлар дастури тўғрисида”ги Фармонида “Ўзбекистонда 2008 йил январидан ўлим жазосининг бекор қилиниши инсон ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш йўлидаги муҳим қадам бўлди” деб таъкидланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ўлим жазосини бекор қилиш тўғрисида”ги Фармони қабул қилинганлиги муносабати билан ўлим жазоси узоқ муддатли ёки умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси билан алмаштирилди. Бу борада 20 дан ортиқ хорижий давлатлар жиноят қонунларини ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, ўлим жазоси бекор қилинган барча давлатларда унинг ўрнига умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси киритилган.

М.Ҳ.Рустамбоев суд-ҳуқуқ ислоҳотлари шароитида жиной жазоларни либераллаштириш хақида шундай ёзади: “жиной жазоларни либераллаштириш борасида салмоқли ишлар олиб борилди, хусусан, жиной жазолар тизимидан мусодара қилиш жазоси чиқариб ташланди, иқтисодиёт соҳасидаги жиноятлар учун иқтисодий таъсир чораларини қўллаш имконияти яратиб берилди, судьяларнинг жарима тариқасидаги жазони тайинлаш имкониятлари ошди, озодликдан маҳрум қилиш жазосини тайинлашга йўл қўймайдиган нормалар доираси кенгайтирилди, муҳими ўлим жазоси босқичма-босқич бекор қилинишига эришилди” [2].



Республикамиз жиноят қонунига мувофиқ ушбу жазо чораси аёлларга, 18 ёшга тўлгунга қадар жиноят содир этганларга, 60 ёшдан ошган эркакларга ва тамом бўлмаган жиноятлар учун тайинланмайди. Энди айрим МДҲ ва бошқа давлатлар жиноят қонунларининг қиёсий таҳлилига тўхтадиган бўлсак, мамлакатимиз Жиноят кодексининг барча нормалари инсонпарварлик ғоялари билан суғорилганлигининг гувоҳи бўламиз. Хусусан, МДҲга кирувчи қатор давлатларнинг жиноят қонунларида умрбод ёки узоқ муддатга озодликдан маҳрум қилиш билан биргаликда ўлим жазоси ҳам назарда тутилган. Масалан, Россия Федерацияси ЖК 6 та моддасида умрбод озодликдан маҳрум қилиш, 5 та моддасида ўлим жазоси; Қозоғистон ЖК 18 та моддасида умрбод озодликдан маҳрум қилиш, 18 та моддасида ўлим жазоси; Тожикистон ЖК 5 та моддасида умрбод озодликдан маҳрум, 5 та ўлим жазоси; Қирғизистон ЖК 3 та моддасида ўлим жазоси; Туркманистон ЖК 13 та моддасида ўлим жазоси назарда тутилган. Умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазосини қўллаш бўйича ривожланган Ғарб давлатлари: Дания, Голландия, Швеция, Швейцария, Польша, Австрия, ГФР, Франция; Осиё давлатлари: XXР, Корея, Япония ва ўзини “демократиянинг намунаси” деб ҳисобловчи АҚШда ҳам ушбу жазо чорасини қўллашда чеклашлар мавжуд эмас. Ҳаттоқи, АҚШнинг айрим штатларида ўлим жазосини тайинлашда шахснинг ёши эътиборга олинмайди. Бундан ташқари, 38 та штатда ўлим жазоси қатор жиноятлар учун, шунингдек аёллар ва вояга етмаганларга ҳам тайинланади.

Юқоридаги МДҲ давлатлари ЖКда умрбод ёки узоқ муддатли озодликдан маҳрум қилиш жазолари назарда тутилган жиноят-хукукий нормаларни қиёсий ўрганиш бу жазо чорасининг Ўзбекистонда энг кам, фақатгина 2та моддада назарда тутилганлигини кўрсатади. Бу кўрсаткич айрим Европа ва Осиё давлатлари жиноят қонунида ҳам бизниги нисбатан бир неча баробар кўпdir. Масалан, Голландияда 19, Францияда 18, Швецияда 13, Данияда 9, Бельгияда 6, Германияда 5, Польшада 5, XXРда 64, Кореяда 17, Японияда 16 та жиноят қонуни моддасида умрбод ёки узоқ муддатли озодликдан маҳрум қилиш жазоси қўлланилиши Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг дунёдаги энг инсонпарвар қонун эканлигидан далолат беради.

Юқорида айтилган фикрларни муҳтасар қилиб мустақиллик йилларида мамлакатимизда юртбошимиз раҳнамолигида инсон хукуқларини таъминлашга қаратилган хукукий асослар яратилди. Президентимиз раҳнамолигида ижтимоий-иктисодий, сиёсий, давлат қурилиши, хукукий ва маънавий соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотлар юритимизда бозор иқтисодиётiga асосланган демократик хукукий давлат қуриш, фуқаролик жамиятини барпо этиш, юртбошимиз таъкидлаганлариdek буюк давлат барпо этиш учун асос бўлади. Шубҳасиз, ушбу ислоҳотлар йиллар ўтган сари янада самарали бўлиб, улар юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқимиз фаравонлигига, фуқароларимиз хукуқларини ҳимоя қилишга хизмат қиласи.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙҲАТИ:

1. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – Б. 15-16.



2. Рустамбаев М.Х. Уголовное законодательство Узбекистана: история создания, действительность, перспективы развития // "Жиноят қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Тошкент: ТДЮИ, 2010. – Б. 24-25.



**MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI  
VAKOLATLI ORGANNING IDORAVIY NAZORAT FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Axmedov Abdulatif Mashrapovich,**  
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi  
[ahmedovabdulatif85@gmail.com](mailto:ahmedovabdulatif85@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli organlarining idoraviy nazorat faoliyatini takomillashtirish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif tomonidan xalqaro va milliy qonunchilikka asoslangan holda majburiy mehnat holatlarini bartaraf etishda, prokuratura organlari hamda Davlat mehnat inspeksiyasining roli va o‘zaro hamkorlik mexanizmlari olib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** majburiy mehnat, idoraviy nazorat, prokuror nazorati, davlat mehnat inspeksiyasi, xavfni tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish, hamkorlik, tekshirish, javobgarlik, xalqaro standartlar, onlayn nazorat.

**THE ISSUES RELATED TO THE ENHANCEMENT OF THE  
INSTITUTIONAL OVERSIGHT ACTIVITIES OF THE COMPETENT  
AUTHORITY IN COMBATING FORCED LABOR**

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the issues related to improving the departmental control of competent authorities in the fight against forced labor. Based on international and national legislation, the author reveals the role of state authorities, the prosecution, and the State Labor Inspectorate, as well as the mechanisms of their cooperation in eliminating cases of forced labor.

**Keywords:** forced labor, departmental control, prosecutor’s supervision, State Labor Inspectorate, human rights protection, cooperation, inspection, accountability, international standards, online monitoring.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisobotiga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 27,6 million kishi majburiy mehnat qurboni bo‘lgan. Shundan 17,6 millioni yoki 63 foizi xususiy iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri keladi. Majburlashning keng tarqalgan shakllariga ish haqini to‘lab bermaslik va ishdan bo‘shatish bilan qo‘rqtish orqali yo‘l qo‘yilmoqda. Buning hisobidan har yili 236 milliard dollar miqdorida noqonuniy daromad olinmoqda [1].

Shuningdek, mamlakatimizda so‘nggi yillarda (2020-2024) majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq 264 ta (100-75-26-34-29) huquqbazarliklar qayd etilgan bo‘lib, ushbu davrda 2 865 nafar (1463-314-199-324-565) fuqarolar majburiy mehnatga jalb qilinganligi aniqlangan [2].

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hisobotiga ko‘ra[3], 2025 yilning birinchi yarmida Davlat mehnat inspeksiya tomonidan mehnat va



mehnatni muhofaza qilishga oid qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida 18 988 ta qonun buzilishi holatlari aniqlanib, 10 501 nafar xodimning 129 mlrd. 769 mln. so'm oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari undirilgan.

Yuqoridagi hisobotlar, majburiy mehnat butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarga ta'sir qiluvchi muhim global muammo bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, majburiy mehnatga qarshi kurash borasidagi harakatlarni muntazam davom ettirish va uni oldini olish hamda tugatish borasida institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy, ancha murakkab iqtisodiy, siyosiy va boshqa sharoitlarda davlat boshqaruvida idoraviy nazorat samaradorligi va barqarorligini oshirish masalalari alohida ahamiyatga ega. Har qanday jamiyatni rivojlantirishning siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa ustuvor yo'naliishlarini amalga oshirish uchun davlat boshqaruvini o'z ichiga olgan samarali nazorat tizimini shakllantirish muhim rol o'ynaydi.

D.Ibragimovning fikricha, idoraviy nazorat ma'lum bir davlat idorasi tomonidan o'zining vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonida qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash, bunday xavflarni oldini olish hamda qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish hisoblanadi[4].

Huquqshunos olim J.Rasulov ta'kidlaganidek, "Majburiy mehnat bilan bog'li q holatlar amaliyotda majburlash jarayonining murakkabligidan dalolat bermoqda. Nomuvofiqlikning aniqlanishi bilan amaldagi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish ning o'zi har doim ham yetarli bo'lmaydi, bu o'rinda ko'proq amaliyotda majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha mexanizmlarni joriy qilish uchun davlat organlarining qo'shimcha harakatlari talab qilinadi"[5].

Yuridik adabiyotlarda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlar borasida bir qator fikrlar ilgari suriladi. Jumladan, N.S.Kashtanova hamda Shegebayevlarning[6] "Prokuror nazorati va idoraviy nazoratni ularning nisbiy mustaqilligi nuqtayi nazaridan turli subyektlar faoliyatining alohida yo'naliishlari sifatida ko'rib chiqish to'g'ri bo'ladi. Haqiqat shundaki, tahlil qilinayotgan huquqiy hodisalar qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish kafolatlarini ta'minlashning yagona tizimini tashkil etadi", deb bildirgan fikrlari o'rindir.

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo'shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, inson huquqlarining jiddiy buzilishiga qarshi kurashish uchun turli darajalarda, jumladan, samarali idoraviy nazorat choralarini o'rnatish bilan birgalikda amaliy sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odam savdosiga qarshi kurashish, undan jabrlangan shaxslarni har tomonlama himoya qilish, majburiy mehnatning oldini olish va unga to'liq barham berishning tashkiliy, huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu borada davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mazkur yo'naliishlarda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.



Darhaqiqat, bolalar mehnatiga barham berildi, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy himoyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, o‘zbek paxtasiga qo‘yilgan boykot bekor qilindi, xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rni yaxshilandi. Mamlakatimizda majburiy mehnatga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholandi va boshqa davlatlar uchun namuna sifatida e’tirof etildi.

Shuningdek, 2023-2024 yillarda mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish maqsadida 24 ta normativ-huquqiy hujjat, shundan 3 ta qonun, Prezidentning 11 ta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 10 ta qarori qabul qilindi[7].

Biroq, hisobotlarda qayd etilgan ko‘rsatkichlar – amalga oshirilayotgan ijobjiy ishlar va qonunchilik islohotlariga qaramay, hanuzga qadar majburiy mehnatga jalb etish holatlari kuzatilayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, majburiy mehnatga qarshi kurashishda xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqlikni ta’minlash uchun hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, majburiy mehnatni oldini olish, uning jabrdiydalari huquqlarining himoyasini ta’minalash va bunday amaliyotdan foydalanayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish borasida mehnat inspeksiyasining faoliyati ahamiyatlidir.

Majburiy mehnatni tugatish va oldini olish borasida tegishli xalqaro standartlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1066-sodan qarori bilan Davlat mehnat inspeksiysi oldiga muhim vazifalar qo‘yildi.

Xususan, Davlat mehnat inspeksiyasining asosiy vazifalari sirasiga majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik va uni to‘liq bartaraf etish, shu jumladan aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish, shu jumladan, jinoiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi hujjatlarni tayyorlash hamda huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish huquqi berildi[8].

Ta’kidlash o‘rinliki, mazkur huquqlar asosida Davlat mehnat inspeksiysi tomonidan majburiy mehnatni oldini olish, unga qarshi kurashish, jabrlanuvchilarining huquqlarini himoya qilish va tiklash borasida muntazam ravishda idoraviy nazorat olib borilmoqda.

Misol uchun, 2024 yilda Davlat mehnat inspeksiyalari tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar davomida jami 29 ta majburiy mehnatga jalb qilish holatlari aniqlanib, 565 nafar shaxslarning huquqlari tiklangan hamda huquqbuzarlarga nisbatan 656,5 mln. so‘m jarimalar qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, paxta terimi mavsumida o‘tkazilgan monitoringlarda 520 ta qonun buzilish holatlari, xususan, 238 ta holatda mehnat sharoitlari yaratilmaganligi, 102 ta mehnat shartnomasi tuzilmaganligi, 180 ta holatda terim pullarini kechiktirilishi aniqlangan. Ushbu holatlar yuzasidan 330 ta klaster va fermer xo‘jaliklari rahbarlariga yozma ko‘rsatmalar hamda 24 nafar mansabdor shaxsga nisbatan MJtKning 49-moddasi 1-qismiga asosan ma’muriy jarimalar qo‘llanilgan. Shuningdek, 3 ta holat



bo'yicha ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yuborilgan[9].

Ammo, fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlari ta'minlanishi borasida olib borilayotgan amaliy tadbirlarga qaramasdan bu borada tizimli muammolarni ko'لامи ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralarni ko'rishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan 27.08.2019 yilda ratifikatsiya qilingan Halqaro mehnat tashkilotining "Mehnat inspeksiya to'g'risida"gi 81-sonli hamda "Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risida"gi 129-sonli Konvensiyalarida mehnat inspektorlari nazorat obyektlariga inspeksiya qilish uchun har qanday vaqtda va to'sqiniksiz kirish vakolati belgilangan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 dekabrdagi 1066-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to'g'risida"gi Nizomning 10-band, 9-xatboshida Inspeksiyaning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, davlat soliq xizmati organlarining yozma murojaatlari asosida maxsus vakolatli organlar bilan oldindan kelishmasdan, mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini tadbirkorlik subyektlarida rejadan tashqari qisqa muddatli (biroq bir kundan ortiq davom etmaydigan) tekshiruvlar o'tkazish nazarda tutilgan[10].

Mazkur norma yuqorida Konvensiyalar talabiga to'la muvofiq emasligi bilan birga, Davlat mehnat inspektorlariga xususiy sektordagi mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid qonun buzilishi holatlariga qarshi kurash va ularni bartaraf etish imkonini bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 4 avgustdag'i "Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-126-sonli Farmoniga ko'ra, mehnat huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirish maqsadida 2025 yil 1 sentyabrdan boshlab, davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar haqida vakolatli organni oldindan xabardor qilish tartibi bekor qilinishi hamda "Xavfni tahlil etish" tizimining tahlil natijalariga asosan o'tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida 10 ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qilish tartibi davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarga tatbiq etilmasligi nazarda tutildi.

Shunga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiya to'g'risida"gi Nizomning 10-band, 9-xatboshini "Davlat mehnat inspektorlari tomonidan mehnat munosabatlarida qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlar vakolatli organni tekshiruv boshlangandan so'ng xabardor etish tartibida o'tkaziladi" shuningdek, 10-xatboshi sifatida "Xavfni tahlil etish" tizimining tahlil natijalariga asosan o'tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida 10 ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qilish tartibi davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarga tatbiq



etilmaydi” mazmunidagi o‘zgartirish bilan to‘ldirish yuqoridagi Konvensiya va Prezident qarori talablariga muvofiqligini ta’minlaydi.

Shuningdek, “Mehnat inspeksiya to‘g‘risida”gi hamda “Qishloq xo‘jaligida mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi Konvensiyalarda milliy qonun hujjatlarida mehnat inspektorlariga ularning vazifalarini amalga oshirishda to‘sinqilik qilinishiga qarshi tegishli jazo choralari ko‘zda tutilishi, shu bilan birga, ular hayotga samarali tatbiq qilinishi, shuningdek mehnat inspektorlari soni inspeksiya xizmatining vazifalari samarali amalga oshirilishini ta’minalash uchun yetarli bo‘lishi, vakolatli hokimiyat organi mehnat inspektorlari o‘z funksiyalarini amalga oshirishi uchun ularga zarur bo‘lgan har qanday qo‘srimcha xarajatlarini qoplash maqsadida zarur choralarni ko‘rishligi qayd etilgan.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 198-moddasida hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sinqilik qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lsada, mazkur normani yuqoridagi xalqaro standartlar talabiga to‘la muvofiq emas deb hisoblaymiz. Jumladan, mazkur normada mehnat inspektorlarining qonuniy talablari mazmuni aniq ko‘rsatib o‘tilmagan.

Fikrimizcha, milliy qonunchilik hujjatlarimizni halqaro shartnomalar talabiga muvofiqlashtirish hamda mehnat inspektorlarining fuqarolarning mehnat huquqlarini ta’minalash bilan bog‘liq vazifalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan idoraviy nazoratni ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga davlat mehnat inspektorining qonuniy faoliyatiga aralashganlik hamda to‘sinqilik qilganlik, shu jumladan uning tekshirish o‘tkazishiga to‘sinqiliklarni yuzaga keltirganlik, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hududlari va inshootlarini ko‘zdan kechirish uchun ularga kiritishni rad etganlik, shuningdek mehnat va mehnat muhofazasi to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlarini bartaraf etishga doir yozma ko‘rsatmalarini uzrli sabablarsiz belgilangan muddatlarda bajarmaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish lozim.

Xalqaro shartnomaga talablaridan kelib chiqib, Davlat mehnat inspeksiyasi tizimidagi mehnat inspektorlari sonini nazorati ostidagi ish joylari soni, ularning xususiyati, ko‘lamli va joylashishi, ish joylarida band bo‘lgan mehnatkashlar soni va toifalari, hayotga tatbiq qilinishi zarur bo‘lgan qonun-qoidalar miqdori va murakkabligi, inspeksiya tashriflari amalga oshirilishi samarali bo‘lishi uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan amaliy sharoitni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish orqali mehnat inspektorlari shtatlar sonini muvofiqlashtirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, Davlat mehnat inspektorlari tomonidan kuzatuv kameralaridan (body yoki mobil) foydalangan holda paxta dalalari va ish joylarida monitoring olib borish, nazorat jarayonini shaffoflashtirish, qonunbuzarliklarning oldini olish, ishonchli va isbotlangan dalillarni to‘plash, xodimlar va ish beruvchilarining mas’uliyatini oshirish hamda ish joylaridagi muhitni yaxshilashga qaratilgan samarali chora bo‘lib xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish



sohasidagi adolatni ta'minlash va xalqaro standartlarga muvofiqlashishga yordam beradi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, "Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risida"gi 129-sonli Konvensiyaning 3-moddasida Xalqaro Mehnat Tashkilotining har bir a'zosi, ushbu Konvensiya unga nisbatan kuchga kirgan bo'lsa, qishloq ho'jaligida mehnat inspeksiyasi tizimiga ega bo'lish majburiyatini o'z zimmasiga olishi belgilangan.

Nazarimizda, mazkur Konvensiya talablari asosida Davlat mehnat inspeksiyasi tizimida qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat mehnat inspektorlari lavozimini joriy etish, milliy qonunchiligidan xalqaro standartlar bilan mukammal muvofiqlashtirish va ishlab chiqarish sohasining maxsus talablariga javob beradigan samarali nazorat tizimini yaratish imkonini beradi.

Hozirda yo'l harakati qoidalari buzilishi, daraxt va butalarni noqonuniy kesish va shikastlashga oid, chek bermasdan savdo qilish, yerni o'zboshimchalik bilan egallab olish huquqbuzarliklar haqidagi fotosurat va videoyoziuvlarni tegishli elektron portal orqali yuborgan hamda korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar bergen shaxslarni rag'batlantirish tizimi joriy etilgan bo'lib, ushbu amaliyot huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishda o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

Fikrimizcha, majburiy mehnatga qarshi kurash, mehnat va mehnatni muhofaza qilishga oid qonunchilik hujjatlarini buzilishini oldini olish va unga qarshi kurashda Davlat mehnat inspeksiyasi bilan hamkorlik qiluvchi va jamoatchilik asosida ko'maklashuvchi fuqarolarni rag'batlantirish tizimini joriy etish ishchilarining huquqlarini himoya qilish va ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ish beruvchilarining noqonuniy daromad olishiga qarshi qaratilgan idoraviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Davlat idoralarida idoraviy nazoratni samaradorligini oshirishdagi mexanizmlardan biri xavfni tahlil qilish tizimini amaliyotga joriy etish hisoblanadi.

Xususan, xavfni tahlil qilishga asoslangan yondashuvdan foydalanish xorijiy tajribada shuni ko'rsatadiki, xavfni tahlil qilish tizimini qo'llash tekshiruvlarning umumiy sonini 30 foizdan 90 foizgacha qisqartirishga va ayrim toifalarda rejali tekshiruvlar o'tkazish zaruriyatidan butunlay ozod qilishga imkon bergen. Shu bilan birga, nazorat qilinadigan hududda xavfsizlik darajasining saqlanishi, shuningdek, oshishi ta'minlangan[11].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, Davlat mehnat inspeksiyasi mansabdor shaxslarining ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligi standartlariga rioya etilishini xavfni tahlil qilish tizimi orqali baholash va aniqlangan huquqbuzarliklar uchun tegishli chora ko'rish vakolatini qonunchilik hujjatlari bilan mustahkamlanishi lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, ish joylarida xodimlarning ishga kelish va ketish vaqtini hisobga oluvchi zamonaviy tynniketlarni joriy etish, ish vaqtini tugaganida, dam olish va bayram kunlarida barcha xodimlarning ish kompyuterlaridan foydalanishni cheklovchi dastyriy ta'minot (RS switch control va boshqalar) o'rnatish



xodimlarning mehnat huquqlarini buzilishini oldini olish, xususan, majburiy mehnatga qarshi kurashishga xizmat qiladi.

Jumladan, ushbu dastur va turniketdagi ma'lumotlar (harbiy va harbiylashtirilgan idoralardan tashqari) “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo axborot tizimiga uzlusiz kiritib boriladi. Bu esa, Davlat mehnat inspektorlariga ish beruvchilar tomonidan mehnatga oid qonunchilik hujjatlariга rioya qilinishini onlayn nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Onlayn kuzatuv davomida ish beruvchilar tomonidan doimiy ravishda xodimlarni ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlari ishga jalb qilish holatlari aniqlangan taqdirda Davlat mehnat inspeksiya xodimlari tomonidan joyida monitoringlar o‘tkaziladi.

Bu kabi, yondashuvning joriy etilishi xodimlarning mehnat huquqlarini kafolatlanishi orqali, majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan idoraviy nazoratni samarali bo‘lishni ta’minlaydi.

Huquqshunos olim A.Yu.Vinokurov prokuratura faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida nazorat organlari, ularning mansabdar shaxslari tomonidan qonunlarning bajarilishini, shuningdek ular tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligiga rioya etilishini nazorat qilibgina qolmay, balki ular bilan turli shakllarda o‘zaro hamkorlik qilishini alohida ko‘rsatib o‘tadi[12].

Shu o‘rinda, alohida qayd etish kerakki, huquq-tartibot organlari, jumladan, sud va prokuratura organlari hamda Davlat mehnat inspeksiyasining majburiy mehnatning oldini olishga oid qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minalash bo‘yicha hamkorligini rivojlantirish va ushbu masalalarga oid qonun hujjatlari, ularni qo’llash amaliyoti bo‘yicha xodimlarning malakasini oshirish sohada idoraviy va prokuror nazoratining samaradorligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, malaka oshirish kurslarini Xalqaro mehnat tashkilotining ekspertlarini jalb qilgan holda tashkil etish xodimlarning majburiy mehnatga qarshi kurashga oid xalqaro standartlar talablari haqidagi bilimlarini oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

S.P.Djambulatov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, prokuratura organlari huquqbazarliklarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida nazorat organlarining kuch va vositalaridan foydalangan holda o‘zining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlashi ham mumkin[13].

Darhaqiqat, prokuratura o‘z ixtiyorida bo‘lgan vositalardan foydalanib, ya’ni nazorat organlari tomonidan aniqlangan huquqbazarliklarni bartaraf etish, shuningdek davlat organlarining qonun buzilishini bartaraf etish bo‘yicha harakatlarini rag‘batlantirish, aybdorlarni qonun hujjatlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish, huquqbazarlik sodir etilishiga sabab bo‘lgan holatlarni bartaraf etish orqali ushbu organlarning o‘z vazifalarini bajarishiga hissa qo‘sadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini samarali amalga oshirishda nazorat idoralari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim o‘rin



tutadi. Xususan, samarali siyosatni amalga oshirish, qonunchilik asoslarini qo'llash va nazorat idoralari bilan hamkorlikni rag'batlantirish orqali hukumatlar inson huquqlarining bu jiddiy buzilishini bartaraf etishlari mumkin.

Ta'kidlash lozimki, davlat idoralari va xususiy sektorda majburiy mehnatni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan siyosat va tartiblarni to‘g‘ri amalga oshirilishi, mazkur sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini doimiy ravishda amalga oshirishni taqozo etmaydi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Forced labour, modern slavery and trafficking in persons//  
<https://www.ilo.org/topics-and-sectors/forced-labour-modern-slavery-and-trafficking-persons>.
2. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hisobotlari.  
<https://gov.uz/oz/bv/news/view/70547>
3. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hisobotlari.  
<https://gov.uz/oz/bv/news/view/70547>
4. Ibragimov D.Sh. Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkillashtirish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Diss. ... yu.f.n. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2023. – B. 107.
5. Rasulov J.A. Majburiy mehnatni tugatish bo‘yicha xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari. Diss. ... PhD. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021. – B. 120.
6. Kashtanova N.S, Shegebayev I.B. Prokurorskiy nadzor i vedomstvenniy kontrol: vopros sootnosheniya. Vestnik Omskogo universiteta. “Pravo”. 2018. №2. – S. 172.
7. [https://gov.uz/oz/bv/activity\\_page/inspectorate](https://gov.uz/oz/bv/activity_page/inspectorate), Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 2024 yil davomida amalga oshirilgan ishlar hisoboti.
8. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022 y., 09/22/195/0319-son.
9. [https://gov.uz/oz/bv/activity\\_page/inspectorate](https://gov.uz/oz/bv/activity_page/inspectorate), Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 2024 yil davomida amalga oshirilgan ishlar hisoboti.
10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2025 y., 09/25/362/0507-son.
11. OECD. Alternatives to Traditional Regulation. Elektronniy resurs: [www.oecd.org](http://www.oecd.org)
12. Vinokurov A.Yu. Vzaimodeystviye organov prokuraturi Rossiyskoy Federatsii i organov oxrani okrujayushey sredi Ministerstva prirodnyx resursov Rossiyskoy Federatsii po preduprejdeniyu ekologicheskix pravonarusheniy. M., 2000.
13. Djambulatov S.P. Prinsipi vzaimodeystviya prokuraturi s kontroliruyushimi organami // Biznes v zakone. 2008. № 2. S. 287.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA PEDAGOGIK VA KOGNITIV  
PSIXOLOGIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Ismatova Maftuna Akrom qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti, Narpay xorijiy tillari fakulteti,

Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

[imaftuna473@gmail.com](mailto:imaftuna473@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini samarali va muvaffaqiyatli o'rghanishda pedagogik va kognitiv psixologiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Psixologik qarashlar, yondashuvlar, o'rGANUVCHINING individual xususiyatlari va ruhiy jarayonlariga ahamiyat berish til o'rghanishdagi samaradorlikning oshishiga sabab bo'lishi asosiy masala qilib olinadi. Maqolada ilmiy, nazariy tahlillar hamda amaliy takliflar asosida til o'rghanishda psixologik bilim va yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, kognitiv psixologiya, pedagogik psixologiya, ingliz tili, til o'rghanish, psixik jarayonlar, o'quv jarayonji

Hozirgi tez, zamonaviy, globallashgan dunyoda chet tillarini o'rghanish, xususan, ingliz tilini o'rghanish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va kasbiy ehtiyojga aylangan. Til o'rghanish jarayoni o'ziga yarasha murakkabliklarga ega bo'llib, faqat grammatik qoidalar va so'z yodlash bilan cheklanmaydi – u psixologik yondashuvni ham talab etadi. Ayniqsa har bir o'rGANUVCHINING, o'quvchining yoshi, intellektual qobiliyati, o'rghanishga bo'lgan ishtiyoqi, diqqatini jam olish yoki olmasligi, xotirasi til o'rghanishga katta ta'sir qiladi. Shu sababli ushbu mavzu alohida izlanishga arziydi hamda maqolada psixologik va kognitiv psixologiya haqida naziriyl, amaliy bilimga ega bo'lish dolzarbli namoyon bo'ladi.

Pedagogik psixologiya va uning til o'rghanishdagi roli. Bu fan yo'nalishi asosan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, ta'sir, o'quv muhiti va motivatsiya kabilarni o'rGANADI. Bu fan til o'rgatish sohasida o'qiydigan talabalar uchun boshqa yo'nalishda dars berishni o'rGANAYOTGAN talabalar bilan birdek muhim bo'lgan fanlardan biri. Bu soha har bir o'rGANUVCHILARGA, ya'ni talaba yoki o'quvchilarga individual yondashish orqali o'qitishning tarafidordir. Masalan, ba'zi bir til o'rGANUVCHILAR tinglash orqali, boshqalar esa yod olish, ko'rish yoki amaliy faoliyat yordamida yaxshiroq o'zlashtirishi mumkin. Shu sababli individual yondashuv muhim va o'qituvchilar turli metodlardan foydalanishi, darsni, o'qitish jarayonini moslashuvchan tashkil qilishi kerak. Bundan tashqari bu soha til o'rghanishda didaktik yondashuvlarni tanlashda bilimga ega bo'lishga ko'maklashadi.



• Masalan , Ausbel o'zining “ Educational Psychology: A cognitive View” asarida shunday ma'lumot keltirgan :

“О‘quvchilarga yangi bilimlarni samarali o‘rgatish uchun ularning oldingi bilimlar tizimiga tayanish zarur. O‘rgatishning haqiqiy samaradorligi faqatgina ma'lumot yetkazish emas, balki uni mavjud bilim tizimi bilan mantiqan bog‘lash orqali yuzaga chiqadi.”

Bu fikrlar yuqoridagi gaplarni tasdiqlab shuni ko'rsatadiki , har bir talaba va o'quvchining fikrashi , intellekti va ruhiy tayyorligi inobatga olinsa , chet tilini tezroq o'rganishi mumkin. Shu sababli konstruktivistik yondashuvlar hozirgi zamonaviy til o'qitish metodlarida keng qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari motivatsiya statistikasiga yuzlanadigan bo'lsak , so'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , til o'rganishda ishtiyoyq va motivatsiya o'zlashtirish natijalarining 50% gacha faqr qilishiga sabab bo'lar ekan.

O'quv muhitidagi hissiy ta'sir haqida Meyer va Turner kabi tadqiqotchilar ijobiy emotSIONAL muhit ( masalan , o'rganish vaqtidagi vahima va stress kamaytirilsa ) o'quvchining til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi- natijada diqqat yaxshilanishi va yaxshi kayfiyat taminlangan bo'ladi .

Kognitiv psixologiya: til o'rganishdagi psixik jarayonlar . Kognitiv psixologiya insonning aqliy jarayonlari , aqliy jarayonlar bilan bog'liq hissiyotlar , miya faoliyati , miya faoliyati va ruhiyatning bir biri bilan tasir va aloqalari , inson tafakkuri e'tibori, idroki va muammolarni hal qila olish qobiliyatini o'rganuvchi fan sohasi . Bu elementlar ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'yndaydi. Chunki til o'rganishni xotirasiz , diqqatsiz , umumiyl qilib aytganda tafakkur jarayonlarisiz uddalay olmaymiz! Misol uchun:

- Xotira – yangi so'zlarni yod olish va qo'llash uchun zarur.
- Diqqat – Tinglash, so'zlashish jarayonlarida , dars vaqtida o'rganayotganlarini tahlil qilib inson ongini bir nuqtada ushlab turish uchun kerak .

Xotira va diqqatdan tashqari boshqa miyamizdag'i aqliy jarayonlar ham o'zlashtirish davomida insonga xizmat qiladi va bu ular haqida biz ko'nikmalarga ega bo'lishimiz kerakligini isbotlaydi .

Psixologik yondashuv orqali samarali o'qitish yo'llari. Psixologlar tomonidan asoslangan ba'zi yondashuvlar o'quvchilarga tilga bo'lgan qiziqishini oshirib , asabiylashish , vahimani kamaytiradi , o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi . Misol uchun:

- Ko'ngilochar o'yinlar orqali o'rganish
- Emotsional qulay muhit yaratish



- Erkin fikrlashga imkon berish , fikr almashish ( muhokama , munozara )

Xulosa . Ingliz tilini o’rganishda faqat yod olsih , takrorlash , gramatik qoidalarni o’rganishga urg’u berish mutlaqo samarali bo’lavermaydi. Til o’rganishdagi murakkabliklarni psixologik yondashuvlar orqali soddalashtirish , turli kognitiv tamoyillar orqali aqliy faoliyatni rivojlantirib o’rganishni yengillashtirish , qiziqarli metodlar ( o’yinlar, musobaqa, qo’llab-quvvatlash , motivatsiya ) o’quv jarayoni sifatini mutlaqo yaxshilanishiga olib keladi. O’rganuvchining ichki olami , o’rganishdagi yondashuvi , munosabati , idroki kabilar inobatga olinsa samaradorlik oshadi. Maqola davomida aytilgan fikrlar va yondashuvlar asosida tilni o’rganish va o’rgatishda psixologik metodlarni qo’llash taklif etiladi.

### Foydalanimanadabiyotlar:

1. Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart & Winston.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1950). The Psychology of Intelligence. Routledge.
5. Oxford, R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House.
- 6.P.I. Ivanov . ( 1910). Umumiy psixologiya



## Kesatiq konseptining leksik-semantik sathda ifodalanishi: struktura, vositalar va semantik xususiyatlar (*o'zbek va ingliz tillari misolida*)

Jalolova Muqaddas Baxodirovna,

Andijon davlat chet tillar instituti

[tel978339880@gmail.com](mailto:tel978339880@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek va ingliz tillarida "kesatiq" konseptining leksik-semantik sathda ifodalanishi tahlil qilinadi. Unda ma'no inversiya, kontekst va madaniy xususiyatlar asosida kesatiqning shakllanish mexanizmlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalarini lingvistika, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** kesatiq, ironiya, leksik-semantik sath, semantik inversiya, kontekst, pragmatika, o'zbek tili, ingliz tili, lingvokulturologiya, tarjima.

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalişlaridan biri bo'lgan kognitiv-semantik tadqiqotlar til birliklarining nafaqat shakliy va grammatik jihatlarini, balki ularning ma'no qatlamini, konseptual asoslarini ham chuqur tahlil etishni talab qiladi. Bu jihatdan "kesatiq" konsepti lingvistik va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Kesatiq — bu gapiruvchi nutqida bevosita aytilmagan, ammo kontekst orqali tushuniladigan, ko'pincha kinoya, istehzo, yoki yashirin ma'no bilan boyitilgan ifoda shaklidir. U ijtimoiy-madaniy kontekstga kuchli bog'liq bo'lib, milliy mentalitet va nutq odatlarining o'ziga xosligini aks ettiradi.

**Leksik-semantik sath** tilning so'z boyligi va so'zlarning ma'nosini qamrab oluvchi qatlamdir. Kesatiqning aynan shu sathda o'rganilishi uning qanday so'zlar, frazeologizmlar, idiomalar, stilistik vositalar yordamida yuzaga chiqishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, o'zbek tilida "**Ko'p bilgan boshga balo**" iborasi kontekstda kinoyaviy kesatiq ma'nosini olishi mumkin; ingliz tilida esa "**Oh, you're such a genius!**" (aslida "sen shunchaki aqlsiz ish qilding" degan ma'noda) kesatiq vazifasini bajaradi.

Kesatiq konseptini **strukturaviy jihatdan** o'rganish til birliklarining ichki tuzilishini, sintaktik tashkilini, semantik komponentlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Masalan, kesatiqni ifodalovchi gaplarning odatda **pozitiv shaklda, ammo negativ ma'no bilan** kelishi strukturaviy paradoks hisoblanadi. **Vositalar** jihatidan esa har bir til o'ziga xos ifoda resurslariga ega: o'zbek tilida maqollar, matallar, kinoyaviy so'zlashuv birliklari keng qo'llansa, ingliz tilida ironik idiomalar va sarkastik so'z o'yinlari ko'proq uchraydi.

Kesatiq nafaqat lingvistik hodisa, balki **madaniyatlararo muloqotda talqin farqlarini** keltirib chiqaruvchi pragmatik vositadir. Bir madaniyatda humor sifatida qabul qilingan ifoda, boshqa madaniyatda haqorat yoki bepisandlik sifatida tushunilishi mumkin. Masalan, ingliz tilida "**Nice job!**" ifodasi kontekstga qarab chinakam maqtov yoki keskin tanqid sifatida qabul qilinishi mumkin, o'zbek tilida



esa “**Barakalla, yaxshi ishlading!**” kinoyaviy ohangda ishlatilganda mutlaqo qarama-qarshi ma’no beradi. Tadqiqot natijalari kesatiqning til tizimidagi o‘rnini, uning madaniyatga bog‘liqligini hamda tarjimada yuzaga keladigan semantik va pragmatik muammolarni aniqlashga xizmat qiladi.

Til tizimida leksik-semantik sath so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolari hamda ularning o‘zaro semantik munosabatlarini o‘z ichiga olgan qatlam sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu qatlam orqali kesatiq (ironiya) turli leksik birliklar, idiomatik ifodalar va frazeologizmlar orqali ifodalanadi. Tadqiqotchilar (Attardo, 2000; Gibbs, 2012) ta’kidlaganidek, ironiya semantik jihatdan “*kutilgan ma’no*” va “*real aytilgan ma’no*” o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi. Masalan, ingliz tilida “*Oh, brilliant!*” iborasi voqelik yomon bo‘lsa ham maqtov shaklida ishlatiladi, bu esa semantik inversiya hodisasini yaqqol ko‘rsatadi. Xuddi shunday, o‘zbek tilida “*Zo‘r qilibsan!*” iborasi ham aslida tanqid ma’nosida ishlatiladi.

Kesatiqning leksik-semantik ifodalanishi strukturaviy jihatdan ikki asosiy turga bo‘linadi. Birinchisi, yuqori darajada kontekstga bog‘liq birliklar bo‘lib, ularning ma’nosi faqat kontekst va ohang orqali anglashiladi. Masalan, ingliz tilida “*Nice job!*” iborasi vazifa bajarilmaganida istehzoli ma’noda ishlatiladi, o‘zbek tilida esa “*Qoyilmaqom ish bo‘pti-ku!*” iborasi yomon bajarilgan ishni kinoya bilan baholashda qo‘llanadi. Ikkinci tur esa barqaror semantik inversiyaga ega bo‘lib, doimiy ravishda kinoya ma’nosida ishlatiladigan frazeologizmlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilida “*to be as clear as mud*” — “mutlaqo tushunarsiz” degani, o‘zbek tilida esa “*tuyani dumi erga tekkanda*” iborasi aslida hech qachon uchrashmaslikni anglatadi.

Kesatiqni ifodalovchi vositalar har bir tilda madaniyat va milliy tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tilida ko‘pincha maqol, matal va xalqona iboralar ishlatiladi: *Baraka topgur!* — aslida qattiq tanqid; *Daho bo‘lib qopsan-ku!* — oddiy ishni ortiqcha maqtash orqali masxara; *O‘zi ham juda aqli!* — ishoraviy istehzo. Ingliz tilida esa ko‘proq idiomalar, puns (so‘z o‘yinlari) va understatement (atayin past baholash) qo‘llanadi: *Yeah, right* — ishonchszilik va masxara; *That’s just what I needed!* — aslida keraksiz yoki zararli narsaga nisbatan; *What a genius!* — oddiy yoki ahmoqona xatti-harakatga javoban.

Kesatiqning semantik tabiati uch asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi. Birinchidan, ma’no inversiyasi — aytilgan so‘zning ma’nosini real voqealikka qarama-qarshi bo‘lishi (*Oh, fantastic!* — yomon natijada). Ikkinchidan, pragmatik implikatura — gapning haqiqiy ma’nosini suhbatsiz taxmin qiladi (*Qoyilmaqom bo‘pti!* — tanqid sifatida). Uchinchidan, kontekstual ko‘pma’nolilik — bir ibora vaziyatga qarab ijobiy yoki salbiy ma’noga ega bo‘lishi (*Great!* — rostdan ham yaxshi yoki istehzo sifatida).

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida kesatiqning leksik-semantik sathdagi ifodalanishida umumiyliliklar ham, farqlar ham mavjud. Har ikki tilda ham kesatiq ma’no inversiyasi, intonatsiya va kontekst orqali shakllanadi. Farq shundaki, o‘zbek tilida xalqona iboralar va maqollar ustuvor bo‘lsa, ingliz tilida idiomalar va zamonaviy so‘z o‘yinlari ko‘proq qo‘llanadi.

Kesatiq konseptining leksik-semantik sathda ifodalanishi o‘zbek va ingliz



tillarida umumiy semantik mexanizmlarga asoslangan bo'lsa-da, milliy-madaniy xususiyatlar tufayli ifoda vositalarda sezilarli farqlar mavjud. Har ikki til uchun umumiy jihat — ma'no inversiyasi, ya'ni ijobjiy shakldagi ifodaning salbiy mazmunga ega bo'lishi, hamda kontekst va intonatsiya orqali yashirin ma'noni anglatishdir.

O'zbek tilida kesatiq ko'pincha xalqona iboralar, maqol va matallar, kinoyaviy so'zlashuv shakllari orqali yuzaga chiqadi. Bu vositalar milliy mentalitet, tarixiy-madaniy tajriba va xalqning nutq odatlari bilan uzviy bog'liqidir. Ingliz tilida esa kesatiq ko'proq idiomalar, so'z o'yinlari, understatement va zamonaviy sarkazm elementlari orqali ifodalananadi, bu esa ingliz tilida ijtimoiy muloqotning ko'proq individual va kontekstga moslashuvchan bo'lishi bilan izohlanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda kesatiqning leksik-semantik vositalari nafaqat lingvistik hodisa sifatida, balki madaniyatlararo muloqotda ham muhim kommunikativ strategiya sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, kesatiq ifodalarining to'g'ri talqini va tarjimasi, ularning madaniy konnotatsiyasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Aks holda, pragmatik noto'g'ri tushunishlar va madaniyatlararo muloqotdagi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Bu natijalar kesatiq konseptining leksik-semantik sathdagi tadqiqi nafaqat tilshunoslik, balki tarjima nazariyasi, pragmatika va madaniyatshunoslik uchun ham amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar

1. Attardo, S. (2000). *Irony Markers and Functions: Towards a Goal-Oriented Theory of Irony and its Processing*. Rask, 12, 3–20.
2. Gibbs, R. W. (2012). *Irony in Talk Among Friends*. Metaphor and Symbol, 27(1), 18–39.
3. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation*. In: Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), *Syntax and Semantics*, Vol. 3, pp. 41–58. New York: Academic Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Sperber, D., & Wilson, D. (1981). *Irony and the Use-Mention Distinction*. In Cole, P. (Ed.), *Radical Pragmatics*, pp. 295–318. New York: Academic Press.
6. Clark, H. H., & Gerrig, R. J. (1984). *On the Pretense Theory of Irony*. Journal of Experimental Psychology: General, 113(1), 121–126.
7. Apresyan, Y. D. (1995). *Избранные труды. Том I: Лексическая семантика*. Москва: Школа «Языки русской культуры».
8. Komilov, N. (2014). *O'zbek tilining stilistikasi*. Toshkent: Fan.
9. Sirojiddinov, S. (2019). *Til va madaniyat: Lingvokulturologiya asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodи.
10. Karimov, M. (2020). *O'zbek tilida ironiyaning lingvopragmatik xususiyatlari*. Filologiya fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.



## Ingliz va o‘zbek tillarida kesatiqni ifoda etuvchi til va nutq birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari

Jalolova Muqaddas Baxodirovna,

Andijon davlat chet tillar instituti

[tel978339880@gmail.com](mailto:tel978339880@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida kesatiqni ifoda etuvchi til va nutq birliklarining lingvomadaniy hamda lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda lug‘aviy, frazeologik va paremiologik qatlamlarda ironiyaning shakllanishi, uning milliy tafakkur va madaniyat bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Natijalar kesatiqning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni va tarjima jarayonidagi muammolarni yoritishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** kesatiq, ironiya, leksik-semantik sath, semantik inversiya, kontekst, pragmatika, lingvokulturologiya, tarjima.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentalitetini ifodalovchi madaniy fenomendir. Shu bois lingvistik birliklarning mazmunini tahlil qilishda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Til va nutqda ko‘p qo‘llanadigan badiiy vositalardan biri bo‘lgan kesatiq ham milliy tafakkur va madaniy stereotiplarning yorqin ko‘zgusi sifatida e’tiborni tortadi.

Kesatiq (ironiya) — bu bevosita ma’no bilan yashirin ma’no o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan nutqiy hodisa bo‘lib, u xalqning ijtimoiy hayoti, qadriyatlari, kulgi madaniyati hamda muloqotdagi xulq-atvor normalarini namoyon etadi. Ingliz va o‘zbek xalqlarining nutqida kesatiq turlicha usullarda ifodalanadib ingliz tilida u ko‘proq yumshoq hazil va “understatement” shaklida namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida u keskinroq ohang, ta‘na va pand-nasihat tusini oladi.

Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot kengayib borayotgan bir sharoitda kesatiqning ingliz va ov‘zbek tillarida qanday ifodalanishini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki ironik nutqning noto‘g‘ri talqini yoki tarjimada yo‘qotilishi madaniyatlararo tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin

Kesatiq hodisasi qadimdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik va falsafa doirasida muhokama etib kelingan. Yunon faylasufi Aristotel ironiyani “bilgan holda kamroq kor‘rsatish” deb ta’riflagan bo‘lsa, keyinchalik Sokratning muloqot uslubi ham “sokratik ironiya” sifatida ilmiy adabiyotda keng o‘rganildi. Tilshunoslikda esa kesatiq asosan stilistik hodisa, pragmatik vosita va kognitiv strategiya sifatida izohlanadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ironiyani o‘rganishda yangi yo‘nalishlar shakllandi. Masalan, D. Sperber va D. Uilsonning relevans nazariyasida kesatiq nutqiy strategiya sifatida qaralib, unda so‘zlovchining maqsadi bevosita emas, balki kontekst orqali anglashilishi ta’kidlanadi. Shuningdek, G. Lakoff va M.



Jonsonning metafora nazariyasi ironiyaning ko‘plab metaforik asoslarini ochib berdi. Rus tilshunosligida V. Apresyan kesatiqni konnotativ ma’no va pragmatik implikatsiya bilan bog’liq holda tahlil qilgan.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan qaralganda, kesatiq xalqning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va muloqot etiketini ifodalovchi ko‘zgu sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir xalq kesatiqni o‘z milliy tafakkuri va madaniyatidan kelib chiqib shakllantiradi.

Bundan tashqari, kesatiq madaniyatlararo muloqotda ham alohida o‘rin tutadi. Ingliz tilidagi “sarcasm” yoki “understatement”ni o‘zbek suhbatdoshi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no sifatida qabul qilishi, yoki aksincha, o‘zbekcha kinoyali maqol ingliz tiliga tarjimada o‘z kuchini yo‘qotishi mumkin. Demak, kesatiq lingvomadaniy jihatdan ham muloqotdagi tushunish va tushunmovchiliklarni belgilovchi omildir.

Shu bois kesatiqni tadqiq etishda nafaqat lingvistik, balki kognitiv, pragmatik va madaniy kontekstni ham hisobga olish talab etiladi. Kesatiq ifodasi turli til birliklari orqali yuzaga chiqadi. Ularning paradigmatic jihatlari lug‘aviy, frazeologik va paremiologik qatlamlarda namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillarida kesatiqni hosil qiluvchi til birliklari shakl va mazmun jihatdan o‘xhash bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy xususiyatlarida sezilarli farqlar mavjud. Ironik mazmun ko‘pincha antonimik qarama-qarshilik, konnotativ rang yoki nutqiy vaziyatga zid qo‘llash orqali yuzaga keladi. Misol uchun lug‘aviy birlikkarda ingliz tilida “What a genius!” — “Qanaqa daho ekan-a!” (aslida odamning ahmoqligi yoki bilimsizligi haqida aytildi). Thanks a lot! — “Rahmat-e!” (kesatiq ohangida, aslida minnatdorchilik emas, balki norozilik ifodalaydi). O‘zbek tilida esa “Qoyil!” — (aslida noto‘g‘ri ish qilgan odamga kinoya sifatida). “Barakalla!” — (ba’zan masxara ohangida, haqiqiy maqtov emas). Shu tarzda, bunday ifodalar yuzaki ma’nadan farqli ravishda, konnotativ va pragmatik ohang orqali ironik yoki kinoyali mazmunni etkazadi.

Frazeologik birlıklar kesatiqni ifodalashning eng samarali vositalaridan biridir. Ingliz tilida, masalan, “A fine friend you are!” — “Zo‘r do‘st ekansan-da!” aslida yomon do‘st haqida kinoya sifatida ishlatiladi yoki “He is the salt of the earth” — “U yerning tuzidek qadrli inson.” Ba’zan kinoya bilan, aslida mutlaqo oddiy yoki arzimagan odam haqida aytildi. O‘zbek tilida “O‘zi bilmas – elga maslahat berar” esa bilmagan odamning pand berishiga ironik tarzda tanqid qilish uchun ishlatiladi. Shu tariqa, frazeologik birlıklar yuzaki ma’nadan tashqari, pragmatik va konnotativ ohang orqali kesatiqni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Paremiologik birlıklar, ya’ni maqol va matallar, xalqning madaniyati, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ular qisqa va yodda qoladigan shaklda bo‘lib, inson xulqidagi kamchiliklar, ijtimoiy munosabatlardagi xatoliklar va ogohlantiruvchi tajribalarni aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi “Too many cooks spoil the broth” (“Oshpaz ko‘p bo‘lsa, ovqat buziladi”) maqoli ko‘pchilikning aralashuvi natijasida ishning yomon yakunlanishini bildiradi. “A big fish in a little pond” (“Kichkina hovuzdag‘i katta baliq”) iborasi esa kichik muhitda o‘zini buyuk qilib ko‘rsatadigan odamni tasvirlaydi. O‘zbek tilida esa “Buzoqning yugurgani somonxonagacha” maqoli esa



ortiqcha harakat yoki harakatsiz natija haqida, “Ishqi yo‘q eshak, dardi yo‘q kesak” esa mas’uliyatsizlikni tanqid qiladi. Shu tariqa, paremiologik birliklar xalqning axloqiy qadriyatlari, odob-axloqi va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida kesatiq turli til birliklari orqali ifodalanib, u lug’aviy, frazeologik va paremiologik qatlamlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lug’aviy darajada ironik ma’no so‘zning vaziyatga zid qo‘llanishi yoki intonatsiya orqali yuzaga chiqadi: ingliz tilida “Brilliant idea!” (“Zo‘r g‘oya ekan-a!” – aslida mutlaqo ahmoqona fikr haqida) yoki “Nice job!” (“Zo‘r ish qilding!” – aslida noto‘g‘ri qilganda) iboralari, o‘zbek tilida esa “Qoyilmaqom!” yoki “Zo‘r bo‘pti!” kabi birliklar aslida maqtov emas, balki istehzoli mazmunni ifodalaydi. Frazeologizmlar ham kesatiqning muhim manbai bo‘lib, ingliz tilidagi “What a great help you are!” (“Zo‘r yordamchi ekansan-da!” – aslida umuman yordam bermagan odam haqida) yoki “He is a real hero” (“U haqiqiy qahramon” – aslida qo‘rroq haqida) iboralari kinoyali ma‘noda qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa “Qozonga yaqinlashsa, qulochi kengayadi” yoki “Ko‘r ko‘zni ocharmish” kabi iboralar istehzo mazmunini kuchaytiradi. Paremiologik qatlamda inglizcha “The pot calling the kettle black” (“Qozon qopqog‘ini qora deydi” – ya‘ni o‘zi ham aybdor bo‘la turib, boshqani ayblash) va “Great minds think alike” (“Aqli odamlar bir xil o‘ylaydi” – ba‘zan kinoya sifatida ishlatiladi) kabi maqollar kesatiq ohangida qo‘llansa, o‘zbek tilida “Tulki ham o‘zini halol deydi” yoki “Chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmas” kabi maqol va matallar xalqning kinoyaviy nutq madaniyatini ifodalaydi. Umuman olganda, ingliz tilida kesatiq ko‘proq humor, vaziyatni yengillashtirish va ijtimoiy etikani saqlash vositasi sifatida yumshoq tanqid tusida qo‘llanadigan bo‘lsa, o‘zbek tilida u o‘tkir tanqid, odob-axloqni eslatish hamda pand-nasihat shaklida namoyon bo‘lib, ingliz ironiyasi ko‘proq hazil ohangiga ega bo‘lsa, o‘zbek ironiyasi tarbiyaviy va tanqidiy tus kasb etadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida kesatiq nafaqat so‘z yoki frazeologik birliklar orqali, balki butun nutq birliklari – dialog, monolog, badiiy matn hamda kundalik muloqot shakllarida ham ifodalanadi. Bunda uning shakllanishi intonatsiya, kontekst va suhbatdoshlarning umumiyy tajribasiga chambarchas bog‘liqdir. Ingliz dialoglarida kesatiq ko‘proq hazil va vaziyatni yengillashtirish vositasi sifatida qo‘llanadi: “Lovely weather, isn’t it?” (“Zo‘r ob-havo, to‘g‘rimi?” – yomg‘irli, sovuq kunda) yoki “That went well!” (“Zo‘r bo‘ldi-ku!” – aslida muvaffaqiyatsizlikda) kabi jumlalar bunga misol bo‘ladi. O‘zbek tilidagi dialoglarda esa kesatiq asosan ta’na va pand-nasihat tusida qo‘llanib, masalan, “Voy, qanaqa katta ish qilib qo‘yibsiz!” yoki “Obbo, juda aqli ekansiz-da!” kabi jumlalar orqali istehzoli mazmun hosil qilinadi. Adabiy matnlarda ham kesatiq muhim stilistik vosita bo‘lib, ingliz yozuvchilarini uni ko‘pincha humor va ikkiyuzlamachilikni fosh etishda ishlatadi, masalan: “He has all the virtues I dislike and none of the vices I admire.” O‘zbek adabiyotida esa kinoya ko‘proq tarbiyaviy ohangda uchraydi, masalan: “Otni qamchilab haydarkan, o‘zi piyoda yuribdi” jumlesi boshqalardan talab qilib, o‘zi amal qilmaydigan odam haqida istehzo tarzida ishlatiladi. Kundalik nutqda inglizlar ironiyani odatda hazil sifatida qo‘llashadi: “Oh great, another meeting!” (“Zo‘r-da, yana yig‘ilish!”) yoki



“You’re so punctual!” (“Juda ma’suliyatli ekansiz-ku!” – kechikadigan odamga) kabi iboralar bunga misol. O’zbek kundalik nutqida esa kesatiq ko‘proq tanqidiy va masxara ohangida ifodalanib, masalan, “Voy, juda ham ishchan ekansiz!” yoki “Baraka toping, katta yordam berdingiz!” kabi iboralar istehzoni anglatadi.

Kesatiqning lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari ham ikki xalq madaniyatida sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida kesatiq ko‘proq humor va ijtimoiy muloyimlik bilan bog‘liq bo‘lib, bevosita tanqid qilish noqulay bo‘lgan vaziyatlarda yumshoq kinoya orqali bildirilib, masalan, “You’re so organized!” (aslida tartibsiz odam haqida) kabi ifodalar ishlataladi. Bu ingliz madaniyatiga xos “indirectness” – bilvosita ifodalash tamoyili bilan bevosita bog‘liq. O’zbek tilida esa kesatiq ko‘pincha tanbeh, pand-nasihat yoki odob-axloqni eslatish shaklida qo‘llanadi, masalan, “Obbo, katta yordam berdingiz-da!” jumlesi aslida hech qanday yordam bermagan odamga qaratilgan istehzo bo‘lib, tarbiyaviy mazmun kasb etadi.

Ingliz va o’zbek tillarida kesatiq konsepti lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatlari orqali turli madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ingliz tilida kesatiq ko‘proq humor, bilvosita tanqid va ijtimoiy muloyimlik vositasi sifatida qo‘llanadi, o’zbek tilida esa tanqid, masxara va tarbiyaviy nasihat shaklida namoyon bo‘ladi. Bu farqlar ikki til va madaniyatdagi muloqot uslubi va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liqdir. Madaniyatlararo muloqotda bunday farqlar ko‘pincha tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin: inglizning yumshoq kinoyasi o’zbek suhbatdoshi tomonidan oddiy hazil emas, balki jiddiy gap sifatida qabul qilinishi yoki aksincha, o’zbekning keskin istehzosi ingliz uchun qo‘pol tuyulishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois kesatiqni to‘g‘ri anglash, tarjima qilish va madaniyatlararo muloqotda izohlash muhim lingvopragmatik masalalardan biri hisoblanadi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan, kesatiq suhbat jarayonida turli kommunikativ maqsadlarni – hazil, tanqid, istehzo va ogohlantirishni amalgaloshiradi. Shu bilan birga, kesatiqning tarjimasi va madaniyatlararo tushuntirilishi oson emas, chunki har bir tilning o‘ziga xos madaniy konteksti mavjud.

Shuning uchun, ingliz va o’zbek tillarida kesatiqni tadqiq qilish, ularning lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash, madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarni kamaytirish uchun muhimdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kesatiq nafaqat til va nutq birligi sifatida, balki milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Attardo, S. (2000). Irony as relevant inappropriateness. *Journal of Pragmatics*, 32(6), 793–826.
2. Clark, H. H., & Gerrig, R. J. (1984). On the pretense theory of irony. *Journal of Experimental Psychology: General*, 113(1), 121–126.
3. Gibbs, R. W. (2000). Irony in talk among friends. *Metaphor and Symbol*, 15(1–2), 5–27.
4. Hutcheon, L. (1994). *Irony's edge: The theory and politics of irony*. Routledge.



5. Kreuz, R. J., & Glucksberg, S. (1989). How to be sarcastic: The echoic reminder theory of verbal irony. *Journal of Experimental Psychology: General*, 118(4), 374–386.
6. Attardo, S., & Raskin, V. (1991). Script theory revis(it)ed: Joke similarity and joke representation model. *Humor*, 4(3–4), 293–347.
7. Apresjan, J. D. (1995). Regular polysemy. *Linguistics*, 33(5), 819–865.
8. Lakoff, G. (1987). Women, fire, and dangerous things. University of Chicago Press.
9. Talmy, L. (2000). Toward a cognitive semantics: Concept structuring systems. MIT Press.
10. Yule, G. (2017). *Pragmatics* (6th ed.). Oxford University Press.
11. Soboleva, O. V. (2012). Lingvokulturologichesky analysis of irony in English and Russian languages. Moscow: Flinta.
12. Ибрагимов, М. (2018). Kesatiq konsepti va uning ifodalanishi. Тошкент: Ўзбекистон.



## TILAKLAR VA QARG‘ISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Murodova Mo’tabar Ibodullayevna

*Samarqand chet tillar institute, 3-kurs tayanch doktoranti*  
[mutabarmurodova86@gmail.com](mailto:mutabarmurodova86@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kishilar kundalik nutqida keng qo‘llaniladigan tilaklar va qarg‘ishlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning shakl, ma’no va qo‘llanish konteksti yoritilib, lingvomadaniy asoslari ko‘rsatiladi. Kishilik jamiyatining ko’chmanchilik davridan meros bo‘lib kelgan an’analari, ijtimoiy muloqotdagи odob-axloq me’yorlari va diniy-madaniy ta’sirlar ushbu nutqiy aktlarda o’z aksini topadi. Tilaklar va qarg‘ishlarning tuzilishi, adresativ va pragmatik xususiyatlari, hamda ularning dialogik nutqdagi vazifalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** tilak, qarg‘ish, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, nutqiy akt, ijobjiy konnotatsiya, salbiy konnotatsiya.

**Abstract.** The research analyzes the linguistic features of good wishes and curses that are widely used in everyday speech of people’s life. The study examines the form, meaning, and usage context of given language units, highlighting its linguistic and cultural foundations. These speech acts reflect ancient traditions inherited from the nomadic period of human society, norms of etiquette in social communication, and religious-cultural influences. The structure, addressee-oriented, and pragmatic features of good wishes and curses, as well as their functions in dialogic discourse, are analyzed.

**Keywords:** good wishes, curse, pragmatics, lingua-cultural studies, speech act, positive connotation, negative connotation.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвистические особенности пожелания и проклятий, широко используемых в повседневной речи резидентов каждого общества. В исследовании рассматриваются форма, значение и контекст употребления выбранных речевых актов, а также освещаются их лингвокультурологические основы. Традиции, унаследованные от кочевого периода человеческого общества, нормы этикета в социальном общении и религиозно-культурные влияния находят отражение в данных речевых актах. Анализируются структура, адресативные и pragматические особенности пожеланий и проклятий, а также их функции в диалогической речи.



**Ключевые слова:** пожелание, проклятие, прагматика, лингвокультурология, речевой акт, положительная коннотация, отрицательная коннотация.

Tilak va qarg‘ish nutqiy aktlari kundalik muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Qarg‘ishlarning zid ma’nosini anglatuvchi olqishlar ham kishi ongida yonma-yon idrok etiladi. Tilaklar ezgu tilaklar, olqishlar va duolar bilan bir qatorda, ba’zan birga ishlatilsa, qarg‘ishlar, la’natlar, badduo kabi salbiy ma’noga ega so’zlarni ifodalovchi nutqiy aktlar har bir xalq an’ana va urf-odatlari bilan birga uning ma’naviy dunyosini namoyon etuvchi birliliklardan sanaladi. Lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda, ushbu birliliklarni turli millat vakillarining o’z dunyoqarashi hamda til madaniyatiga daxldor deya qaralmoqda. Sababi mazku birliklar har bir tilda mavjud antonimik tafakkur mahsuli hisoblanadi, ya’ni ezgu tilak, olqish qarg‘ishga nisbatan zid ma’nolidir [Abdurahmonov; ]

Ushbu til birliklari nafaqat hissiy holatni ifodalaydi, balki jamiyatda kishilar orasidagi o’zaro ijtimoiy munosabatlarni ham tartibga soladi. Tilaklar va qarg‘ishlar qadimda ma’lum marosimlar vaqtida ijro etiladigan maxsus aytimlar sifatida yuzaga kelgan bo’lsa-da, bugungi kunga kelib marosimlar va ushbu nutqiy janrlar orasidagi uzviy bog’liqlik aloqasi yo’qolgan. Va shundan kelib chiqib mazkur nutqiy janrlar marosim vaqtida va kundalik hayotda ijro etiladigan turlarga ajralgan [O’zbek og’zaki poetik ijodi; 109].

An’anaviy “kichik” nutq janrlari, L. N. Vinogradova [Vinogradova; 277] fikriga ko’ra rasmiy marosimlarning og’zaki tarkibiy qismi sifatida “hamrohlik qiluvchi” matnlar vazifasini bajaradi. Ular bir vaqtning o’zida tilshunoslik, folklorshunoslik va etnografiya kabi yaqin sohalarda ham keng tadqiq etiladi. Bu fanlar tilaklar va qarg‘ish formulalarini nutqiy xulq-atvorning an’anaviy tarzda takrorlanadigan hodisalari sifatida o’rganadi.

Tilaklar odatda ijobiy pragmatik maqsadga ega bo‘lib, so’zlovchining tinglovchiga ezgulik, baxt-saodat yoki muvaffaqiyat tilashi orqali o’zaro ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Ular ko‘pincha quyidagi xususiyatlarga ega:

1. **Diniy-madaniy asos:** *Alloh tilaginga yetkazsin – May God grant the desires of your heart., Xudo umringni uzun qilsin – May the Lord bless you with long life and health* kabi iboralar ilohiy kuchga murojaat qilish orqali kuchli ta’sir ko’rsatish imkonini beradi.
2. **Metaforik ifoda:** *Boshinga baxt qushi qo‘nsin, May the winds of fortune carry you far* — misollarda qush, shamol kabilar baxt, omad timsoli sifatida tasvirlangan
3. **Etnoqiyosiy kontekst:** Turk xalqlarida o’xshash formulalar mavjud — masalan, qozoq tilidagi *qazan majluu* va o’zbek tilidagi *qozoning doim qaynab tursin* iboralarini misol sifatida keltirish mumkin [Laude-Cirautas; 12], ingliz va qardosh nemis tillarida esa omad tilash ma’nosidagi quyidagi iboralarda o’xshashlikni ko’rish mumkin: *Break a leg!, Hals un Beinbruch!*



4. **Adresatga yo'naltirilganlik:** Ko'pincha yoshi katta shaxslar kichiklarga tilak bildiradi, bu esa ijtimoiy ierarxiya va hurmat me'yorini aks ettiradi. Agar yoshi kichik kishi tarafidan tilak bildirilganda, duo qilishda ham o'zbek jamiyatida "Keksalarimiz aytganidek" tarzida so'z boshlash nutqiy etiket qoidasi sifatida qabul qilingan [Laude-Cirtautas; 3]. Ingлизабон мамлакатлarda o'zbek jamiyatidagi kabi qat'iy "kattadan kichikka" tamoyili kuchli emas, lekin ingliz tilida ham yoshi kattalar tomonidan kichiklarga yo'naltirilgan tilaklarni uchratish mumkin, bunda ota-ona, bobo-buvi, ustozlar tomonidan *May you always walk in the light, God bless you, my child, May you grow in wisdom and strength* ko'rinishidagi tilaklarni aytish odati mavjud, ya'ni ingliz tilida ham ma'lum adresatga yo'naltirilgan tilaklar mavjud, ammo kuchli ijtimoiy-ritual tartibda uchramaydi.

Tilaklarning funksiyasi faqat ezgulik tilash emas, balki ijtimoiy birlik va birdamlikni mustahkamlashdir.

Qarg'ishlar salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, odatda g'azab, norozilik yoki nafrat ifodasi sifatida qo'llanadi. Ular quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

1. **Zoologik metaforalar:** "It", "cho'chqa" kabi hayvon nomlari orqali shaxsni haqorat qilish *itvachcha, nomussiz it/ you pig, you stupid ass*
2. **Salomatlikka oid tilaklar:** *Ko'zing oqib tushsin, Qurib ketsin/ Go blind!, Drop dead!, A pox on you!* kabi iboralar orqali fizik zarar tilash.
3. **Ota-ona sha'niga tegish:** *Senday farzand tarbiya qilgan ota-onanga ming la'nat/ Curse the womb that bore you!* eng kuchli qarg'ishlardan biri bo'lib, bu shaxsning sharafi va nasl-nasabiga zarba beradi.
4. **Sintaktik tuzilma:** Ko'pincha ikkinchi shaxs birlik shaklida (*sen*) ishlatalidi, bu esa ijtimoiy masofani keskin oshiradi va haqorat ohangini kuchaytiradi.

Qarg'ishlar, I. Sirtautas ta'kidlaganidek, o'zbeklarda boshqa tillarga nisbatan yumshoqroq bo'lishi mumkin, chunki og'zaki adabiyot va odob-axloq me'yorlari odobsiz so'zlarni cheklaydi.

Tilak va qarg'ishlar bir-biriga qarama-qarshi pragmatik maqsadga ega. Tilaklar suhbatdoshga ijobiy illokutiv kuch bilan ta'sir qiladi, qarg'ishlar esa salbiy illokutiv kuchga ega. Shuningdek, har ikkisi ham ko'pincha ijtimoiy rollar va vaziyatlar bilan bog'liq holda ishlataladi.

Masalan:

- **Tilak:** *Tilaklaringiz qabul bo'lsin/ May your wishes be granted* — ijobiy niyatni ifodalaydi.
- **Qarg'ish:** *Baxting kuyib kul bo'lsin/ To hell with you!* — salbiy oqibat tilaydi.



O‘zbek tilidagi tilak va qarg‘ishlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tizimini aks ettiradi. Ularning lingvistik xususiyatlari diniy-madaniy konnotatsiyalar, metaforik obrazlar va an’anaviy nutq formulalari bilan boyitilgan. Shu bois, tilak va qarg‘ishlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki etnografik jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiyligi qatlamlari. Oltinchi qism. Kh-davron.uz 25.12.2021
2. Ilse Laude-Cirtautas. Blessings and curses in Kazakh and in Kirghiz. Central Asiatic Journal Vol. 18, No. 1.1974. pp. 9-22 (14 pages) Published by: Harrassowitz Verlag
3. O‘zbek og‘zaki poetik ijodi: Un-t va ped. in-t stud. uchun darslik. K. Imomov. T/ Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. – T.: O’qituvchi, 1990.
4. Виноградова Л. Н. Отражение древнеславянских мифологических представлений в «малых» формах фольклорных стереотипов // История, культура, этнография и фольклор славянских народов: X Международный съезд славистов. Доклады советской делегации. М.: Наука, 1988. С. 277–288.



## O'ZBEK TILIDA O'TGAN ZAMONNING TASNIFI VA TUZILISHI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'Idashaliyevich  
Farg'onan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilida o'tgan zamon fe'l shakllarining tasnifi va tuzilishi haqida so'z yuritiladi. O'zbek tilshunosligiga salmoqli hissa qo'shgan tilshunoslar A.G'ulomov, A.Hojiyev, G'.Abdurahmonovlarning o'tgan zamonga oid nazariyalariga e'tibor qaratilgan. Xususan, o'tgan zamonlar va ularni nazariy tahlil qilishda munozarali vaziyatlarga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** *fe'l, zamon, affiks, ravishdosh, to'liqsiz fe'l.*

O'zbek tilida o'tgan zamon fe'lining bir nechta shakllari mavjud. Bu shakllar umumiy ma'noda nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin sodir bo'lgan harakatni ifodalab bersa-da, ular bir-biridan farqli ma'no va xususiyatlarga ega. Ularga shu paytga qadar grammatik zamon mavzusi tadqiq qilingan tadqiqot ishlarida, mакtab va oliy ta'lim darsliklarida maxsus nomlar berilgan.

Zamonaviy o'zbek adabiy tili yuzasidan salmoqli izlanish olib borgan tilshunoslardan biri A.G'ulomov o'tgan zamon fe'l shakllarini quyidagi nomlar bilan nomlaydi: **o'tgan zamon aniqlik fe'l, tarixiy o'tgan zamon fe'l, uzoq o'tgan zamon fe'l, o'tgan zamon hikoya fe'l, o'tgan zamon eshitilganlik fe'l, tugallanmagan o'tgan zamon fe'l yoki o'tgan zamon davom fe'l**.

Filologiya fanlari doktori, akademik G'.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida nashrdan chiqarilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining 1-jildida ham o'tgan zamon fe'l shakllari ayni shu nomlar bilan keltirilgan<sup>2</sup>.

Shunga qaramasdan, zamonlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarda o'zbek tilidagi zamonlarni turlicha nomlar bilan keltirilganini guvohi bo'lamiz. A.Hojiyev o'zining "Fe'l" nomli monografiyasida zamonlarni turlicha nomlashdan ko'ra zamon hosil qiluvchi fe'l formalariga e'tibor qaratish lozimligiga urg'u beradi<sup>3</sup> va zamon formalarining ma'no va vazifalarini tahlil qilib beradi. Uning fikricha, lingvistik manbalarda o'tgan zamonlarga berilgan nomlar shu zamonlarning tabiatiga to'la mos kelmaydi va ularni to'liq ochib bera olmaydi. Misol tariqasida -di affiksini oladigan bo'lsak, bu affiks orqali hosil qilingan fe'l zamoni aksariyat manbalarda "O'tgan zamon aniqlik fe'l" deb nomlanadi, ammo o'zbek tilidagi boshqa fe'l zamonlarini hosil qiluvchi shakllar ham aniqlikni ifodalab berishi mumkin. Shuningdek, **-gan** affiksi bilan hosil qilinadigan zamonga ham lingvistik adabiyotlarda ba'zan "Tarixiy o'tgan zamon" yoki "Yaqin o'tgan zamon" kabi nomlar berilganini uchratishimiz mumkin, lekin bu affiks bilan hosil qilingan fe'l

<sup>1</sup> Фуломов А.Ф. Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954. –Б. 22-23.

<sup>2</sup> F.A.Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида. Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. –Б.288.  
( Бу асарнинг "Феъл замонлари" бўлими Ж. Жўраева томонидан ёзилган)

<sup>3</sup> Ҳожиев А . Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.131-132.



zamoni, nafaqat, uzoq o‘tmishda, balki yaqin o‘tmishda sodir bo‘lgan ish-harakatni ham ifodalashi mumkin. Masalan: 1) *Ular yaqindagina kelishgan*. 2) *Alisher Navoiy 15-asrda yashab ijod qilgan*. Ushbu har ikki misolda ham **-gan** affiksi qo‘llangan bo‘lsa-da, faqat tarixiy o‘tgan zamon ifodalangan emas. Ushbu gaplarda *yaqindagina* yoki *15-asrda* kabi kontekst elementlari ish-harakatini uzoq vaqt oldin yoki yaqinda sodir bo‘lganini ochib bermoqda. A.Hojiyevning xulosasiga ko‘ra, o‘tgan zamon hosil qiluvchi shakllarning barcha xususiyatlarini umumlashtiradigan nom topish to‘gri emas va bunga ehtiyoj ham mavjud emas. Tilshunos “O‘tgan zamon” mavzusini muhokama qilishda o‘tgan zamon hosil qiluvchi fe’l shakllarining xos xususiyatlarini yoritib berish yetarli deb hisoblaydi va fe’llarning o‘tgan zamon hosil qiluvchi quyidagi shakllarining har bir jihatini izohlab beradi<sup>4</sup>:

- 1) **-di** affiksi asosida hosil qilinuvchi fe’l shakllari: *keldim, kelding, keldi*;
- 2) **-gan** affiksi asosida hosil qilinuvchi fe’l shakllari: *kelganman, kelgansan, kelgan*;
- 3) **-(i)b** affiksli ravishdosh va shaxs-son qo‘shimchalari yordamida yasaluvchi shakllar: *kelibman, kelibsan, kelibdi*;
- 4) **edi** to‘liqsiz fe’li yordami bilan yasaluvchi shakllar: *kelgan edi; kelib edi; kelayotgan edi; kelayotib edi; kelmoqda edi; kelar edi; kelguvchi edi*.

Bundan ko‘rinadiki, o‘tgan zamon shakllarining katta qismi edi to‘liqsiz fe’li yordami bilan yasaladi, ammo ularning barchasi bir-biridan farqli ma’no va xususiyatlarga ega. Shuningdek, faqatgina uchta o‘tgan zamon shakligina affikslar yordami bilan hosil qilinmoqda.

Turli tilshunoslik manbalarida aynan shu yuqoridagi to‘rt shakl asosida hosil qilingan zamonlarni bir-biridan farqli nomlar bilan atalishi hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda, shubhasiz, chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Shu tufayli, A.Hojiyevning zamonlarga oid tavsiflari, ya’ni zamonlarni shunchaki nomlash emas, balki o‘tgan zamon hosil qiluvchi shakllarning ma’no va xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligi haqidagi g‘oyalari o‘rinli degan fikrga kelish mumkin. Shu paytga qadar zamon nuqtayi nazaridan tadqiqot o‘tkazgan tilshunoslар o‘z asarlarida o‘tgan zamonni nutq vaqtidan oldin sodir bo‘lgan ish-harakatlari va holatlar uchun qo‘llanadi deb tarif berishgan, ammo zamon hosil qiluvchi shakllarning ichki xususiyatlari va ularga berilgan turli nomlarga kelsak, bu o‘rinda fikrlar xilma-xilligi yuzaga kelgan.

Bizning fikrimizcha, A.Hojiyevning zamonlarni sinflashda zamon shakllariga asoslanish haqidagi g‘oyalari asosli. O‘tgan zamonni hosil qilishda qo‘llanadigan fe’l shakllarini bir sinfga ajratgan holda ularning ma’no va xususiyatlariga ahamiyat berish o‘rinli deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А.Ф. Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954. –Б. 22-23.

<sup>4</sup> Ҳожиев А . Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.133.



2. F.A.Абдураҳмоновнинг умумий таҳрири остида. Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. –Б.288 ( Бу асарнинг “Феъл замонлари” бўлими Ж. Жўраева томонидан ёзилган).
3. Ҳожиев А . Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.131-132.



## ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINI MODELLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

In'omjon Yusubov Ikram o'g'li  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrasи dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini modellashtirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirishning xorij tajribasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Mintaqa, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, modellashtirish, tajriba.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi xilma-xil ahamiyatga ega. Bu borada har bir mamlakat o'zining o'ziga xos shart-sharoitlari va ustuvorliklaridan kelib chiqib belgilanadi. Biroq, umumiyl tendensiylar va muvaffaqiyatli strategiyalar alohida ajratib ko'rsatiladi. **Bu borada** mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini modellashtirishning xorij tajribasi quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- **Singapur:** "Smart Nation" tashabbusi orqali Singapur raqamli iqtisodiyotning global yetakchisiga aylandi. Uning muvaffaqiyati davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sun'iy intellektni rivojlantirish, moliyaviy texnologiyani qo'llab-quvvatlash va kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. ingapurning raqamli iqtisodiyoti 2022-yilda 17 milliard dollar yoki YaIMning 106 foiz hissasini qo'shdi [1]. Singapur raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Uning tajribasi mintaqalar uchun qimmatli saboqlar beradi. Singapur ma'lumotlarni modellashtirish, boshqaruq qarorlarining tizimli integratsiyasini tashkil etish, chiqindilarni tozalash uchun yuk mashinalarining ishi kabi real jarayonlarni qamrab olish va namoyish qilish, jarayonlarni rejallashtirish va prognoz qilish uchun turli vaziyatlarni yaratish va ishlab chiqish imkonini beruvchi shahar-davlatning raqamli egizaklarini amalga oshiradi [2]. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kompleks strategiya, hukumat roli, infratuzilmaga investitsiyalar, raqamli ko'nikmalarni oshirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli xavfsizlikni ta'minlash zarur bo'ladi. Ushbu tajribani modellashtirish orqali mintaqalar o'zlarining o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

- **Estoniya:** "Raqamli davlat" sifatida tanilgan Estoniya barcha davlat xizmatlarini onlayn tarzda taqdim etadi. Estoniya dunyodagi eng taniqli texnologik startaplarga ega [3]. Elektron identifikasiya, blokcheyn texnologiyasi va ma'lumotlar almashinuvi kabi innovatsiyalar Estonianing raqamli iqtisodiyot



asosini tashkil etadi. Estoniya “raqamli davlat” sifatida tanilgan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda noyob va muvaffaqiyatli tajribaga ega. Estoniyaning tajribasi mintaqalar uchun ko‘pgina darslarni o‘z ichiga oladi. Estoniyada elektron rezidentlik tushunchasi davlat xizmatlari Estoniya rezidentlari va chet elliklar uchun mavjud ekanligini anglatadi [4]. Estoniyaning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun “raqamli davlat” konsepsiyasiga asoslanish, yuqori tezlikdagi internetga kirishni ta’minlash, raqamli ko‘nikmalarni oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va qonunchilik bazasini yaratish zarur. Ushbu tajribani modellashtirish orqali mintaqalar o‘zlarining o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Shuningdek, Estoniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik davlat ham to‘g‘ri siyosat va investitsiyalar orqali raqamli iqtisodiyotda global yetakchiga aylanishi mumkin.

- **Janubiy Koreya:** Janubiy Koreya telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, 5G texnologiyasini joriy etish va sun’iy intellektga sarmoya kiritish orqali raqamli iqtisodiyotda katta yutuqlarga erishdi.

- **Xitoy:** Xitoy elektron tijorat, mobil to‘lovlar va raqamli platformalarni rivojlantirishda yetakchi hisoblanadi. Xitoyda raqamli transformatsiya umuman olganda nisbatan tez rivojlanmoqda. Biroq, uning kengligi, chuqurligi va tezligi mintaqalar va tarmoqlar bo‘yicha notekis bo‘ladi [5]. Bu Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi uzoq muddatli nomutanosiblik, shuningdek, raqamlashtirishning noaniq innovatsion jihatlari bilan bog‘liq. Hukumatning qo‘llab-quvvatlashi, keng iste’mol bozori va texnologik kompaniyalarning faoliyati Xitoyning raqamli iqtisodiyotining o‘sishini ta’minlaydi. Xitoyning raqamli iqtisodiyotining rivojlanishi rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kech boshlanganligi sababli raqamli texnologiyalar infratuzilmasi qurilishi orqada qolmoqda va asosiy nazariyalar, asosiy algoritmlar, asosiy uskunalar va *boshqalar bo‘yicha Xitoy va rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida tafovutlar mavjud* [6].

Xitoyning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muvozanatlari yondashuv, xavfsizlik va innovatsiyalar o‘rtasida muvozanatni saqlash, va ijtimoiy jihatlarni inobatga olish muhim o‘rin tutadi. Xitoyning raqamli iqtisodiyot sohasidagi tajribasi mintaqaga uchun qiziqarli va murakkab bo‘ladi. Xitoyning tajribasi muvaffaqiyatga erishish usullari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Xitoy tajribasi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni ko‘rsatadi, ammo qiyinchiliklar va xavflar mavjud. Mintaqalar Xitoyning tajribasiga asosan, strategik rejalashtirish va hukumatning qo‘llab-quvvatlashi muhim o‘rin tutadi. Elektron tijorat va mobil to‘lovlarini rivojlantirish raqamli iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarga investitsiya qilish lozim bo‘ladi. Ma’lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik va adolatli raqobatni ta’minlash kerak. Ammo, raqamli farq va ijtimoiy muammolarni hal qilishga asoslanadi.

Albatta, mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni modellashtirish Singapur, Estoniya va Xitoy kabi yetakchi mamlakatlarlf asosiy jihatlarga ega



bo‘lib, mintaqalarga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda zarur bo‘ladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda modellashtirish tajribalarini qiyosiy jadvali<sup>5</sup>**

<b>Mezonlar</b>	<b>Singapur</b>	<b>Estoniya</b>	<b>Xitoy</b>
Umumiy strategiya	“Smart Nation” - texnologiyalarni barcha sohalarga integratsiya qilish	“Raqamli davlat” - barcha davlat xizmatlarini onlayn qilish	Davlatning rejali siyosati - raqamli infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash
Hukumat roli	Faol, siyosatni ishlab chiqish, investitsiyalarni jalb qilish	Faol, barcha davlat xizmatlarini onlayn tarzda taqdim etish	Strategik, katta bozorning afzalliklaridan foydalanish
Infratuzilma	Yuqori tezlikdagi internet, 5G, bulutli hisoblash, ma’lumotlar markazlari	Yuqori tezlikdagi internet, blokcheyn, bulutli hisoblash	Keng qamrovli telekommunikatsiya infratuzilmasi, 5G, AI infratuzilmasi
Raqamli ko‘nikmalar	Ta’lim tizimini moslashtirish, qayta tayyorlash dasturlari, STEAM ta’limi	Erta yoshdan dasturlashni o’rgatish, katta yoshdagilar uchun qayta tayyorlash	Raqamli ko‘nikmalarga ehtiyojni qondirish uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish
Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash	Startaplar, tadqiqotlar, regulyator sandboxlari	Startap ekotizimi, venture kapitali, regulyator sandboxlari	Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tadqiqotlar va innovatsiya markazlari
Elektron tijorat	Rivojlangan, yuqori standartlar	Rivojlangan, qulaylik	Keng tarqalgan, mobil tijoratning yuqori darajasi
Mobil to‘lovlar	Keng tarqalgan	Mavjud	Juda rivojlangan, keng qamrovli
Ma’lumotlar siyosati	Ma’lumotlar maxfiyligini	Ma’lumotlar xavfsizligi va	Ma’lumotlarga kirishni nazorat qilish

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi.



	himoya qilishga e'tibor	maxfiyligiga e'tibor	
Kiberxavfsizlik	Yuqori daraja, milliy strategiya	Yuqori daraja, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish	Kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar
Tartibga solish	Adolatli raqobatni ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish o'rtaqidagi muvozanat	Raqamli platformalarni tartibga solish, monopoliyalarga qarshi kurash

Ushbu 1-jadval mintaqalar uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni modellashtirishda asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir mintaqaga o'ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun muvaffaqiyatli tajribani to'liq nusxalash emas, ya'ni moslashtirish talab etiladi.

- **Evropa Ittifoqi:** Evropa Ittifoqi raqamli yagona bozor yaratish, ma'lumotlar siyosatini tartibga solish va raqamli ko'nikmalarni oshirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga intilmoqda.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib,** mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini modellashtirish tajribasi asosida **O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.** Bu borada O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ushbu xorij tajribasidan quyidagi xulosalarni chiqarishi mumkin:

- **milliy strategiya:** Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar va ustuvorliklarni belgilovchi milliy strategiya ishlab chiqish.

- **infratuzilmaga investitsiyalar:** Yuqori tezlikdagi internetga kirishni kengaytirish, bulutli hisoblash infratuzilmasini yaratish va ma'lumotlar markazlarini rivojlantirish.

- **ta'lim va malaka oshirish:** Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchi kuchini yaratish uchun ta'lim tizimini moslashtirish va qayta tayyorlash.

- **davlat xizmatlarini raqamlashtirish:** Davlat xizmatlarini onlayn tarzda taqdim etish, elektron hukumatni rivojlantirish va byurokratiyanı kamaytirish.

- **innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash:** Startaplar, tadqiqot markazlari va texnologik kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish.

- **qulay investitsiya muhitini yaratish:** Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va raqamli sohada biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish.

- **kiberxavfsizlikni ta'minlash:** Kiberxavfsizlikni kuchaytirish, ma'lumotlar maxfiyligini himoya qilish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish.

Mazkur xulosalar O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlari va ustuvorliklariga moslashtirilishi kerak. Shunga asosan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, doimiy o'rganish, moslashish va innovatsiyalarni talab qiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.imda.gov.sg/resources/press-releases-factsheets-and-speeches/press-releases/2023/singapore-digital-economy-report>
2. Андреев В.Д., Абрамов В.И. Анализ методики оценки цифровой трансформации государственного управления в Сингапуре в контексте использования в регионах России. // Информатизация в цифровой экономике, 2022, Т.3, №3. - С. 111-124. - DOI 10.18334/ide.3.3.116585
3. <https://govinsider.asia/intl-en/article/estonia-reimagines-the-digital-economy-with-real-time-solutions>
4. Арутюнян Г.А. Эстонский опыт цифрового развития и пути его применения в Армении. // Региональные проблемы преобразования экономики, №12, 2021. - с. 36.
5. Цзо Ци. Цифровая трансформация в Китайской народной республике: динамика и тенденции. // Вестник московского университета, Серия18, Социология и политология, 2025, Т.31, №1. - с. 204.
6. Zhong Ma, Xingxing Niu, Weijing Ma, Yanxia Kang, Weiwei Xie. Interregional and intersectoral interaction of digital economy in China. // Environmental Economics and Management, Volume11, 2023. <https://doi.org/10.3389/fenvs.2023.1138200>



## Саноат тармоғи иқтисодий самарадорлигини ошириш ва баҳолашга оид хориж тажрибалари.

Мирзаева Интизор Эргашевна  
Абу Райхон Беруний номидаги  
Урганч давлат университети  
мустақил изланувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада саноат тармоғи иқтисодий самарадорлигини ошириш ва баҳолашга оид хориж тажрибалари, монтакавий хусусиятлари, стратегияси ва моделлари ёритилган.

**Калит сўзлар.** Саноат, самарадорлик, стратегия, инновация, модел.

Саноат корхоналарини ривожлантириш, унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш ҳамда барқарор ўсишини таъминлаш билан боғлиқ хорижий тажрибалар бўйича кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилган. Шундай бўлсада, аксарият мамлакатлар тажрибасида инновацияларга, уларнинг татбиқига эътибор қаратилади. Шунингдек, уларнинг корхона фаолиятига таъсири иқтисодий-статистик усллар орқали баҳоланган. Бу эса, саноат тармоғи фаолиятини мунтазам иқтисодий кўрсаткичлари ўзгаришини мониторинг қилиш ҳамда мавжуд амалиётнинг ижобий ҳамда салбий таъсирини таҳлил қилиш имкониятини яратади.

Жумладан, саноат тармоғи ва унинг етакчи корхоналарига инновацияларни жорий қилиш ва бунинг асосида иқтисодий самарадорликни ошириш билан боғлиқ тажрибалар замирида АҚШ давлати етакчи ҳисобланади. Айниқса, 20 асрнинг охирига келиб саноат самарадорлигини таъминлашда инвестицияларни инновацион фаолиятга ўйналтиришга эътибор қаратилган. Бунда, тармоққа ўйналтирилган инвестицияларнинг 60 фоиздан ортиқ қисми инновацион иқтисодиёт инфратузилмасини шакллантириш ва уни ривожлантиришга қаратилган. Бунда саноат корхоналари инновацион ривожланишига хизмат кўрсатувчи информацион технологияларни ривожлантиришга устуворлик қаратилган. Натижада саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳажмининг ўртача йиллик ўсиш кўрсаткичи 42 фоизга етган<sup>6</sup>. Мазкур мамлакатда саноат самарадорлигини инновацион жиҳатларини баҳолашда солиштирма таҳлил, қиёслаш усулларидан кенг фойдаланган ҳолда инновацияларни татбиқ қилинган давр ва ундан олдинги йиллар маълумотларини ўзаро солиштириш амалга оширилган.

Шунингдек, Жаҳон банки тадқиқотларига кўра, АҚШ, Европа, Хитой каби мамлакатларда саноатнинг юқори қўшилган қийматли тармоқларига инновациялар жорий этиш самарадорликни оширишнинг асосий

<sup>6</sup> Бахтиёров Б.Б. Саноат корхоналари инновацион бошқарувини ривожлантиришда илғор хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. №1, 2020, январь-февраль.



йўналиши сифатида қўлланилмоқда. Шу билан бирга, улар тажрибасида омилли таҳлил усллари кенг қўлланилиб, мамлакатларда корхоналар самарадорлигини баҳолаш амалга оширилмоқда<sup>7</sup>. Айниқса, мазкур мамлакатларда саноат иқтисодий самарадорлигини таҳлилида асосий эътибор молиявий мезонларга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Шу билан бирга, қатор мамлакатлар иқтисодий кўрсаткичларига таяниб ўтказилган статистик тадқиқотларда инновацияларнинг нафақат саноат самарадорлигига, балки умумий иқтисодий кўрсаткичларга ҳам ижобий таъсири очиб борилган. З.Гриличес ва Ф.Лихтендерглар тадқиқотлари натижасига кўра, билимлар иқтисодиётини 10 фоизга ўсиши ЯИМнинг кўшимча 1-2 фоизга ошириш имконини берган. Шунингдек, ЯИМ ҳажмида ИТТКИ харажатлари улуши 0-4 фоиз бўлиши тавсия этилади. Олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра, ИТТКИга сарфланган харажатларнинг самарадорлиги жисмоний капитал сарфига нисбатан 7 баробар юқори эканлиги аниқланган<sup>8</sup>. ИТТКИ харажатларининг ЯИМдаги улушкини 0,5 фоизга ошириш орқали АҚШ ЯИМ ҳажми 9,0 фоизга, Канадада эса ушбу кўрсаткич 7,0 фоизга ўсишига эришилган<sup>9</sup>. Мазкур тадқиқотларда иқтисодий статистик услларнинг корреляцион-регрессион усулларидан фойдаланилган. Ушбу боғланишлар қатор ривожланган мамлакатлар тажрибасига мувофиқ очиб берилган. Шу билан бирга, тадқиқот натижаларига кўра, бир мамлакатда қўлланилган инновацияларнинг бошқа мамлакатларга кўчиб ўтиш цикли тўрт йилни ўз ичига асосланган.

АҚШда саноат самарадорлигини ошириш, улар фаолиятига янги технология ва янгиликларни жорий қилиш бўйича кўплаб ҳужжатлар ишлаб чиқилган. Айниқса, минтақа саноатининг инновацион ривожланишида Стенфорд университети олими Генри Ицковий томонидан таклиф қилинган “Уч спирал” (Triple Helix) модели кенг маънода фойдаланилган. Мазкур моделда олий таълим муассасалари, корхоналар ва давлат учлиги ўзаро алоқаларига ургу берилган. Ушбу модел муаллифларининг фикрича, минтақа саноати самарадорлигини оширишда инновацион ривожланиш учун университетларнинг ўрни муҳим саналади. Бунда “Уч спирал” модели ўзини таркибиға қуйидаги асосларни олади:

1. Илмга асосланган жамиятда саноат ва хукумат билан университетларнинг ўзаро муносабатларида уларнинг вазифасини кучайтириш.

<sup>7</sup> Доклад о мировом развитии 2020. «Торговля как инструмент развития в эпоху глобальных производственно-сбытовых цепей», Международный банк реконструкции и развития/Всемирный банк. 1818 H Street NW, Washington DC 20433. с.6 <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/32437/211457ovRU.pdf>.

<sup>8</sup> Griliches Z., Lichtenberg F.R. R&D and Productivity Growth at the Industry Level: Is there Still a Relationship? // R&D, Patents, and Productivity. University od Chicago Press, 1984. Pp. – 465 502; Эрназаров О.Э. Инновациялар асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш // Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2020. 60 б.

<sup>9</sup> David T. Coe, Elhanam Helpman. International R&D spillovers. European Economic Review, Volume 39, Issue 5, May 1995. Pp. – 859-887. [https://doi.org/10.1016/0014-2921\(94\)00100-E](https://doi.org/10.1016/0014-2921(94)00100-E); Эрназаров О.Э. Инновациялар асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш // Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2020. 60 б.



2. Университет-бизнес-хукумат. Бу учликни ўзаро ҳамкорлигига ҳаракат қилиш ҳамда инновацион ривожланиш давлатнинг хоҳиши иродасига кўра эмас, балки уч институтнинг ўзаро хоҳишига кўра амалга ошириш.

3. Анъанавий вазифаларга қўшимча равишда уч институтнинг ҳар бири маълум бир маънода бир бирининг вазифаларини ҳам бажариши лозим. Олим фикрича, университет бу фақатгина таълим берувчи муассаса бўлмай, йиғилган билимларни амалиётга татбиқ этувчи муассаса ҳамдир. Университетлар илмий-тадқиқотларни ишлаб чиқариш ҳамда билимларни амалда қўллаш тизимида қатнашиши, бошқа илмий-тадқиқот муассасалари билан янги технологияларни ишлаб чиқиши имконини беради<sup>10</sup>. Шунингдек, AUTM (Association of University Technology Managers) америка ассоциациясининг ҳисоб китобига кўра 1991 йилдан 2009 йилгача бўлган муддатда АҚШда илмий-тадқиқот ишларини давлат томонидан молиялаштирилиши қиймати 588 миллиард долларни ташкил этди. Натижада 249 минг кашфиётлар амалга оширилиб, ундан 51 мингтасига патент олинган. 2009 йилга келиб 38030 та фаол лицензиялар амалда фойдаланилиб, 6272 та стартаплар яратилган, натижада эса 300000 та қўшимча ишчи ўринлари юзага келган. АҚШнинг сиёсатига кўра тадқиқотларга қилинган харажатлар ҳамда тадқиқот натижаларини тижоратлашувидан олинган асосий даромадлар бир неча университетгагина тўғри келади. Бу борада Колумбия университети биринчи ўринни эгаллайди. Демак, “Уч спирал”нинг муҳим элементи сифатида маҳаллий (худудий) давлат органларини университетлар фаолиятини ривожлантиришда ҳам, инновацион компаниялар учун ижобий муҳит яратишда ҳам фаол иштирок этишини ажратиб кўрсатиш муҳим<sup>11</sup>.

Фикримизча, АҚШ тажрибасига мувофиқ мамлакат ва унинг минтақаларида саноатни ривожлантиришда юқоридаги каби моделни қўллаш мақсадга мувофиқ. Бунда, АҚШдагидан фарқли ўлароқ минтақа маҳаллий бюджетларига ИТТКИ учун Давлат бюджетидан субвенция харажатларини ажратиш амалиётини жорий этиш лозим. Шунингдек, бунда олий таълим муассасаси, минтақа саноат корхонаси ҳамда маҳаллий ҳокимлик учлигидан иборат “Стартап гурӯҳ” ташкил этиш зарур. Мазкур амалиётни молиялаштириш тегишли танлов орқали амалга оширилади. Танлов учун стартап лойихаларни эса маҳаллий ҳокимлик назоратида йўлга қўйиш лозим. Шунингдек, хусусий сектор томонидан ҳам стартапларни молиялаштириш кўламини кенгайтириш, улар томонидан муаммоли масалаларни ўз ичига олган мавзулар танловини йўлга қўйиш тизимини такомиллаштириш зарур.

Саноатни ривожлантириш, унинг минтақавий хусусиятларига эътибор қаратиб самарадорлигини ошириш ҳамда барқарор ривожлантиришда Германия тажрибаси ҳам муҳим ўрин тутади. Яъни, мазкур давлат саноат самарадорлигини ошириш, худудларда тармоқни ривожлантириш бўйича давлат сиёсатини муваффақиятли амалга оширишда Европа давлатлари

<sup>10</sup> Промышленная политика и поддержка экспорта в США // <http://www.nc cg.ru/site.xp/049054057055124.html>.

<sup>11</sup> БАТИРОВА Н.Ш. МИНТАҚА САНОАТИНИН ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ // ИКТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 4(136). 161-169-б.



орасида биринчи ҳисобланади. Шуни алоҳида таъкидлаймизки, ушбу давлатда саноат корхоналарининг ижобий ривожланиши, молиявий барқарорлиги бўйича жаҳонда етакчи ҳисобланади. Бу эса, ушбу мамлакатнинг саноат сиёсатини, соҳани ривожлантириш бўйича минтақавий тажрибаларни ўрганишни талаб этади.

Германияда 20 асрнинг 80 йилларида илмий-тадқиқот фаолиятини ривожлантиришда асосий эътибор минтақалардаги йирик саноатга қаратилган. Бу йўналиш учун молиялаштириш жами тадқиқот ва тараққиёт харажатларини 2/3 қисмини ташкил этган. 2006 йилда Германияда Инновацион ва технологик тараққиёт Стратегияси қабул қилинган. Ушбу ҳужжатда инновацияларни ривожлантириш бўйича устувор йўналишлар, мақсадли чора-тадбирлар белгиланган. Шу билан бирга, ушбу ҳужжатнинг ўзига хос муҳим жиҳати унда минтақаларда саноатни ривожлантиришга эътибор қаратилган. Жумладан, мазкур ҳужжатда асосий эътибор инновацияларга, илм-фанни ривожлантириш асосида унинг ютуқларидан саноатда кенг фойдаланишга эътибор қаратилган. Яъни, стратегияда мамлакатнинг 17 та етакчи тармоқлари белгиланиб, уларга узоқ муддатли дастурлар ишлаб чиқилган<sup>12</sup>. Стратегияни амалга ошириш натижасида инновацион битим ва стратегик шериклик шакллантирилди. Жумладан, саноатнинг етакчи тармоқларидан бўлган энергетика, электроника, оптика ва биомедицина соҳаларида 6 та инновацион битимлар шакллантирилган. Ушбу ҳужжатда саноатни ривожлантириш ва унинг самарадорлигини оширишда илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни амалга оширишга қаратилган узоқ муддатли шерикчилик шаклланганлигидир.

Германияда ҳам “Уч спирал” модели минтақа саноатининг инновацион ривожлантиришда муҳим манба ҳисобланади. Шунингдек, Германия тажрибасининг ўзига хос жиҳати бюджет профицитининг асосий қисми тадқиқот ва ишланмаларга йўналтирилаётганлигидадир. Яъни, умумий бюджетнинг 20 фоизини илм ва фанга сарфланган<sup>13</sup>. Шу боис, ушбу мамлакатда олий таълим муассасаларида илмф-фан ва таълим уйғунлиқда ташкил қилинади. Саноатнинг инновацион ривожлантиришда етакчи минтақа – шимолий Рейн-Вестфалия (North Rhine-Westphalia – NRW) ҳудуди ҳисобланади. Бу ерда тадқиқотларга йўналтирилган харажатлар ЯИМнинг 0,2-0,3 фоизини ташкил қиласи. Ҳукумат минтақада инновацион технологияларни ривожлантиришни минтақавий иқтисодий сиёсати қуидаги таркибий қисмларни ўз ичига олган:

ҳудудда аниқ йўналтирилган кластерларни шакллантириш: биотехнология, ахборот технологиялари, кимё, энергия ва ресурс тежаш манбаларини қайта тиклаш;

кадрлар тайёрлаш тизимини қайта шакллантириш, танланган етакчи илм-фан тараққиёти йўналишларига мувофиқ мутахассисларни тайёрлаш;

<sup>12</sup> Гертц, Р. Инновационная политика предполагает инновационное предпринимательство [Текст] / Р. Гертц // «Элемент». №2, 2010. С. 62-71.

<sup>13</sup> Бахтиёров Б.Б. Саноат корхоналари инновацион бошқарувини ривожлантиришда илғор хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. №1, 2020, январь-феврал.



илмий-технологик марказларни шакллантириш, олий таълим муассасалари битирувчилари учун илмий-тадқиқот ишларини ўтказиш учун асбоб-ускуналар билан таъминланган майдонларни ажратиш.

Хозирги кунда Шимолий Рейн-Вестфалия минтақаси Германиянинг саноат маркази ҳисобланади. Жумладан, 100 та йирик корхоналардан 37 таси Рейн ва Рурда ташкил этилган<sup>14</sup>. Шуни ҳам алоҳида таъкидлаймизки, Германияда саноат фаолиятини статистик баҳолаш, ўрганиш ҳамда аҳборотларни қайта ишлашда миллий ҳисобчилик тизимиға эътибор қаратилади. Бунда, статистик аҳборотларни йиғиш ва қайта ишлашда гуруҳлаш, қиёслаш асосида мониторинг қилишга урғу берилади. Статистик фаолиятда саноатга оид маълумотларга, тизимли ва таркибий ёндашувларга, анализ ва синтезга эътибор қаратишади.

Демак, Германия тажрибасида минтақа саноатини ривожлантириш, улар ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш ва самарадорликни ошириш учун дастлаб мамлакат минтақаларида йирик саноатга эътибор қаратишимиз зарур. Хусусан, Хоразм вилоятида мавжуд саноат салоҳиятини ҳисобга олиб машинасозлик, майший-техника буюмлари, тўқимачилик ҳамда озиқ-овқат йўналишидаги йирик саноат корхоналари ва кластерларни ривожлантиришга эътибор қаратишимиз лозим. Уларга маҳсус молиялаштириш амалиётини татбиқ қилиш мақсадга мувофиқ.

Саноатни ривожлантириш, унинг барқарор ва самарали фаолиятини таъминлашда **Япония** тажрибаси ҳам муҳим ўрин тутади. Мазкур мамлакатда саноат тармоғини ривожлантириш билан боғлиқ чора-тадбирлар замирида давлат сиёсати устувор саналади. Давлат саноатни қўллаб-қувватлаш, уни минтақалар кесимида ривожлантириш учун молиявий механизмга, экспорт кўламини кенгайтиришга ҳамда тармоқни ички ва ташқи бозорларда ҳимоя қилишга эътибор қаратади.

Япония саноатининг ривожланиши бир неча босқичда кечган. Биринчи босқич 1868-1945 йилларни ўз ичига олган. Яъни, Мэйдзи даври Япониянинг саноатлаштиришдаги бошланғич нуқта ҳисобланади. Бу даврда ишлаб чиқариш инфратузилмасини яратиш, фарб технологиялари ва мутахассисларини фаол жалб этиш, давлатнинг бевосита иштироки ва институционал мухитни яратиш муваффақиятнинг асосий омили бўлган. Иккинчи босқич ўз ичига 1950-1973 йилларни олган. Мазкур босқичнинг муваффақияти қуидаги омиллар билан боғлиқ:

хориждан тайёр маҳсулотларни олиб киришни таъкилаш ва замонавий Ғарб технологияларини импорт қилишни рағбатлантириш;

патентлар, лицензиялар, ноу-хауларни фаол сотиб олиш ва уларни амалиётга жорий этиш;

янги маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни давлат даражасида қўллаб қувватлаш;

<sup>14</sup> Бахтиёров Б.Б. Саноат корхоналари инновацион бошқарувини ривожлантиришда илғор хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. №1, 2020, январь-феврал.



асосий мулкдор ва харидор бўлган давлатнинг фаол иқтисодий роли;

комплекс молиялаштириш: умумдавлат аҳамиятига молик тараққиёт режалари хусусий инвестициялар ҳисобидан, тармоқ бўйича режалар эса давлатнинг молиявий ресурслари ҳисобидан таъминланди.

Мазкур даврда Японияда ялпи ички маҳсулотнинг 10 фоизли ўсишига эришилган. Шу билан бирга, ушбу даврдаги жадал ўсишнинг асосини саноат конгломератлари (Кейрецу)ни ташкил этиш ҳисобланади. Кейрецу асосида унинг таркибига кирадиган турли соҳаларга кредитлар берган ва сармоя киритган банклар ҳам бор эди.

Учинчи босқич 1973 йилдан ҳозирги кунгача бўлган даврни ўз ичига олади. Бу давр глобал миқёсдаги нефть инқирозидан кейин саноат ривожланишидаги қарашларнинг ўзгариши билан ажralиб туради. Саноатни кенг кўламли таркибий қайта қуриш бошланган бўлиб, унинг асосида куйидагилар ётади:

энергия ва материалларни кўп талаб қилувчи тармоқларни максимал даражада қисқартириш;

фан интенсивлиги юқори бўлган тармоқларни жадал ривожлантириш;

саноатнинг барча тармоқларида фан-техника тараққиётининг сўнгги ютуқлари асосида ишлаб чиқариш фондларини кенг кўламда янгилаш<sup>15</sup>.

Япония саноатини ривожлантиришдаги ўзига хос хусусияти “субпудрат” тизимининг мавжудлиги ҳисобланади. Яъни бир минтақада жойлашган анча паст даражадаги мол етказиб берувчи корхоналар йирик мол етказиб берувчи корхоналар учун субпудратчиликни бажаради.

Японияда саноатни минтақаларда ривожлантириш учун давлат томонидан ташкил қилинган технопарклар ўрни алоҳида ўрин тутади. Жумладан, 1980 йиллардан бошлаб Япония технополисларни ташкил этиш бўйича кенг қамровли дастурларни амалга оширишга киришган. Ишлаб чиқилган “Технополис” дастурига мувофиқ, технополис номини олган 20 та илмий техник зоналар алоҳида иқтисодий ривожланишда орқада қолган туманларда ташкил этилган. Юқори технологияли тармоқларда фаолият юритувчи корхоналарда биринчи йили асосий воситаларга 30 фоиз, бино ва иншоотларни 15 фоизга амортизация ҳисоблашга рухсат берилди. Давлат лаборатория ва кичик фирмаларнинг қўшма илмий тадқиқотларини 1/3 қисмини молиялаштириб беради<sup>16</sup>.

Фикримизча, Япония тажрибасида саноатни ривожлантиришда технопаркларни ташкил қилиш амалиёти мамлакатимиз ва минтақаларда қўллаш учун мос келади. Шунингдек, субпудратчилик асосида кичик саноат тадбиркорлари билан йирик корхоналарни ўзаро ҳамкорлигини ривожлантириш мақсадга мувофиқдир. Бу эса, минтақа ва унинг худудларида

<sup>15</sup> ТУРЛИ СОҲА ВА ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА ЯПОНИЯ ТАЖРИБАСИ: ТАРИХИЙ МАНЗАРА ВА БУГУНГИ КУН // [16639.pdf](#).

<sup>16</sup> Особенности функционирования высокотехнологичных кластеров в Китае и Японии А.А. Лавров// <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/329/image/329-182.pdf>; БАТИРОВА Н.Ш. МИНТАҚА САНОАТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 4(136). 161-169-б.



корхоналарнинг ўзаро кооперациясини таъминлаш имконини беради. Шунингдек, Хоразм миңтақасида “Технополис”ларни ташкил қилиш лозим. Бунда, тегишли илмий-техник зоналарда ихтисослашган молия муассасалари, инновацион инфратузилма объектлари ҳамда йирик саноат корхоналарини бўлишилиги мақсадли ҳисобланади. Айниқса, ушбу амалиёт Хоразм вилоятининг Тупроққалъя, Хазорасп туманларида ҳамда Урганч шаҳри ва унинг атрофида барпо этилиши мақсадга мувоғиқ ҳисобланади.

Шунингдек, Европа Итифоқи, Франция давлатларида саноатни ривожлантириш, унинг рақобатбардошлигини оширишда инновацияларга алоҳида эътибор қаратилган<sup>17</sup>. Жумладан, Францияда 150 та миңтақавий инновация марказлари ҳамда технологиялар трансфери марказлари мавжуд бўлиб, улар 24 та ҳудудга илғор технологияларни тарқатади.

Шу билан бирга, Хитой, Ж.Корея каби мамлакатларнинг амалиётида саноат самарадорлигини оширишда саноат зоналарини ташкил қилиш кенг кўлланилади<sup>18</sup>.

Юқоридагилар қатори, саноат ривожланиши, унинг асосий иқтисодий-статистик кўрсаткичларини баҳолаш билан боғлиқ изланишлар ҳам амалга оширилган. Жумладан, мазкур йўналишдаги тадқиқотлар ичida Ж.Ж.Ламбин, В.И.Назаренко, М.Бейкер, Д.Ж.Бауэрсокс, Э.А.Мораш, Ж.Т. Ментсер, У.Д.Витт, Ж.С.Киблер, П.Ларсон, Д.Рожерс, К.Оливер, М.Веббернинг кабиларнинг изланишлари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади<sup>19</sup>. Шундай бўлсада, хорижий амалиётда саноат фаолияти самарадорлиги статистик тадқиқ қилишда прогнозлаш, корреляцион-регрессион ҳамда сатистик таҳлил, гуруҳлаш, қиёслаш усуллари алоҳида аҳамиятга эга.

Жумладан, Аргентина тажрибасида саноат, унинг озиқ-овқат тармоғининг ривожланиши таҳлилларида асосан қаторларни статистик таҳлил қилиш, эксперт баҳолари ва экстраполяция усулларидан кенг фойдаланилган. Европа Итифоқи давлатларида, хусусан Францияда график, экстраполяция ва моделлаштириш усуллари кенг фойдаланилади. Россия амалиётида сценарий ёндашувлари устувор саналади<sup>20</sup>.

Демак, Хоразм вилоятида саноат фаолиятини ривожланиши, унинг бақорорлигини таъминлаш ҳамда энг асосийси, фаолияти самарадорлигини тадқиқ қилиш аниқланган устувор манба ҳамда омилларга эътибор қаратамиз.

<sup>17</sup> Гуссалов А.М., Кабисов К.А., Жермелев А.Ю., Цомаева Л.Т. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ // "Экономика и социум" №1(6) 2013. С. 178-185.

<sup>18</sup> Бегмуллаев О.И., Мирсаидова Ш.А. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОТЕЧЕСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali / <http://inlibrary.uz/index.php/interpretation-research/article/view/78843?ysclid=mcl187h4da697954550>.

<sup>19</sup> Косова А. Зарубежный опыт оценки и прогнозирования эффективности функционирования отраслей агропромышленного производства в условиях интегрированных кооперативно-интеграционных структур // АГРАРНАЯ ЭКОНОМИКА. №8, 2022. С.87-96. <https://doi.org/10.29235/18189806202288796>.

<sup>20</sup> Прогноз научнотехнологического развития агропромышленного комплекса Российской Федерации на период до 2030 года// [https://issek.hse.ru/data/2017/05/03/1171421726/Prognoz\\_APK\\_2030.pdf](https://issek.hse.ru/data/2017/05/03/1171421726/Prognoz_APK_2030.pdf); Пилипук, А. В. Конкурентоспособность предприятий пищевой промышленности Бела руси в условиях построения Евразийского экономического союза / А. В. Пилипук; под ред. В. Г. Гусакова. – Минск: Инт систем. исслед. в АПК НАН Беларуси, 2018. – 237 с.



Натижада, саноат самарадорлиги нафақат минтақа, балки бутун мамлакат бўйича ўсади.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахтиёров Б.Б. Саноат корхоналари инновацион бошқарувини ривожлантиришда илғор хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnalı. №1, 2020, январь-феврал.
2. Доклад о мировом развитии 2020. «Торговля как инструмент развития в эпоху глобальных производственно-сбытовых цепей», Международный банк реконструкции и развития/Всемирный банк. 1818 H Street NW, Washington DC 20433. c.6  
<https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/32437/211457ovRU.pdf>.
3. Griliches Z., Lichtenberg F.R. R&D and Productivity Growth at the Industry Level: Is there Still a Relationship? // R&D, Patents, and Productivity. University od Chicago Press, 1984. Pp. – 465 502; Эрназаров О.Э. Инновациялар асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш // Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2020. 60 б.
4. David T. Coe, Elhanam Helpman. International R&D spillovers. European Economic Review, Volume 39, Issue 5, May 1995. Pp. – 859-887.  
[https://doi.org/10.1016/0014-2921\(94\)00100-E](https://doi.org/10.1016/0014-2921(94)00100-E); Эрназаров О.Э. Инновациялар асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш // Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2020. 60 б.
5. Промышленная политика и поддержка экспорта в США // <http://www.ncg.ru/site.xp/049054057055124.html>.
6. БАТИРОВА Н.Ш. МИНТАҚА САНОАТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 4(136). 161-169-б.
7. Гертц, Р. Инновационная политика предполагает инновационное предпринимательство [Текст] / Р. Гертц // «Элемент». №2, 2010. С. 62-71
8. ТУРЛИ СОҲА ВА ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА ЯПОНИЯ ТАЖРИБАСИ: ТАРИХИЙ МАНЗАРА ВА БУГУНГИ КУН // [16639.pdf](#).
9. Особенности функционирования высокотехнологичных кластеров в Китае и Японии А.А. Лавров// <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/329/image/329-182.pdf>; БАТИРОВА Н.Ш. МИНТАҚА САНОАТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 4(136). 161-169-б.



10. Гуссалов А.М., Кабисов К.А., Жермелев А.Ю., Цомаева Л.Т. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ // "Экономика и социум" №1(6) 2013. С. 178-185.
11. Бегмуллаев О.И., Мирсаидова Ш.А. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОТЕЧЕСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali / <http://inlibrary.uz/index.php/interpretation-research/article/view/78843?ysclid=mcll87h4da697954550>.
12. Косова А. Зарубежный опыт оценки и прогнозирования эффективности функционирования отраслей агропромышленного производства в условиях интегрированных кооперативно-интеграционных структур // АГРАРНАЯ ЭКОНОМИКА. №8, 2022. С.87-96. /<https://doi.org/10.29235/18189806202288796>.
13. Прогноз научно-технологического развития агропромышленного комплекса Российской Федерации на период до 2030 года// [https://issek.hse.ru/data/2017/05/03/1171421726/Prognoz\\_APK\\_2030.pdf](https://issek.hse.ru/data/2017/05/03/1171421726/Prognoz_APK_2030.pdf); Пилипук, А. В. Конкурентоспособность предприятий пищевой промышленности Беларуси в условиях построения Евразийского экономического союза / А. В. Пилипук; под ред. В. Г. Гусакова. – Минск: Инт систем. исслед. в АПК НАН Беларуси, 2018. – 237 с.



## SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

*Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna*

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti,

Biznes va boshqaruv

kafedrasи dotsenti v.b.

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning to'qimachilik sanoati va uning iqtisodiy ahamiyatini, shuningdek, Xorazm viloyati sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini tahlil qilingan. Xorazm viloyati sanoati uchun texnologik modernizatsiya, kadrlar malakasini oshirish, energetika infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish va yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish kabi strategik yo'nalishlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar.** To'qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, texnologik modernizatsiya, eksport, GSP+ rejimi, raqamlı marketing, mijozlarga yo'naltirilgan strategiya

O'zbekistonda sanoat korxonalari bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda to'qimachilik sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda va mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada oshmoqda. Xususan, 2024 yilda respublika korxonalari tomonidan 885,8 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi<sup>21</sup>.

To'qimachilik mahsulotlarini eksportini jadallashtirishda muhim omillaridan biri GSP + rejimi bo'lib, unga ko'ra o'zbek to'qimachilik mahsulotlari boshqa to'qimachilik mamlakatlari bilan jiddiy raqobatlasha olishga imkon yaratadi.

2024 yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 89 451,2 mlrd so'mga to'g'ri kelgan.

Korxonaning marketing strategiyasi uning marketing faoliyati va firma uchun raqobatdosh ustunliklarni yaratish va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq qarorlarini qabul qilish darajasi va uni amalga oshirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishini bildiradi. Bu borada oldingi boblarda keng o'rGANishlar amalga oshirilgan. Har qanday korxona o'zining kuchli tomonlaridan foydalanish orqali raqobatchilardan farqlanishga va mijozlarga o'ziga xos bo'lgan yaxshiroq qiymat berishga intiladi.

Biroq, umumiy holda marketing strategiyasining ikkita konfiguratsiyasi mavjud: mijozlarga yo'naltirilgan yoki raqobatchilarga yo'naltirilganlik. Ko'pchilik

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, O'zbekiston respublikasi Statistika qo'mitasi axborotnomasi, 2024 y



rus olimlari tadqiqotlarida marketing strategiyalarini bozorga yo‘naltirilganlik yondashuvini ham kiritishadi.

Mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyasiga ega bo‘lgan firmalar mijozlar manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yib, mahsulotni ishlab chiqish va marketing jarayoniga mijozlarga imkon qadar qiymat yaratishga intiladi. Bu borada marketingning an‘anaviy marketing MIKSning “4P” elementidan foydalanish mijozlarga yo‘naltirilgan “4C” elementiga yaqinlashtirishni nazarda tutiladi. Korxonalarning asosiy yondashuvi esa qisqa muddatli foydadan farqli o‘laroq, uzoq muddatli biznes muvaffaqiyatidan manfaatdor. Boshqa tomondan, raqobatchilarga yo‘naltirilgan marketing strategiyasiga ega bo‘lgan firmalar o‘zlarining tashqi bozoridagi raqobatchilarini tahlil qilishga, mahsulotni ishlab chiqish va marketing jarayonlariga rahbarlik qilish uchun raqobatchilarning ma‘lumotlaridan foydalanishga, o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga va ular bilan hamqadam bo‘lishga intiladilar.

Yuqoridagilar bilan birga zamonaviy marketing bu – raqamli marketingdir. Bugungi marketing raqamlashtirilgan marketingga o‘tmoqda. Shunga ko‘ra so‘nggi vaqtarda korxonalarning raqamlashtirishga yo‘naltirilgan strategik faoliyati yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Aslida raqamli umumiylar marketing strategiyalarining bir qismi bo‘lsa-da, korxonalarning strategik marketing sohalarining aksariyat qismini qamrab olmoqda. Bu korxonalarda qoidalarni o‘zgartirish, tarmoqlar tuzilmasini o‘zgartirish va tashkilotlarga raqobatdosh ustunlik yaratish imkonini beradigan texnologiyalarga alohida e‘tibor beradi. Korxonalarning AT moslashuvchanligi strategiyasi marketing ma‘lumotlarini va bozor o‘zgarishlarini kuzatish va qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish uchun AT dan foydalanishni anglatadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan sanoat korxonalari soni 113000 tadan oshdi. 2025-yil yanvar oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 55,8 trln so‘m ni tashkil etib, 2024-yil yanvar oyiga nisbatan 4,3% ga oshdi. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi (FHI) 104,3% ni tashkil etdi, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarining kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Bu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, sanoatdagi o‘zgarishlar yildan-yilga ortib bormoqda.

### **2.3.1-jadval.**

#### **O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonaları soni**

	Yillar	Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni	Jami yangi tashkil etilgan
1	2021	83579	18626
2	2022	91152	19306
3	2023	98805	16201
4	2024	69444	14112
5	2025	55646	12938

So‘nggi yillarda ishlab chiqaruvchilar mijozlar bilan onlayn aloqa orqali bog‘lanish imkoniyatlariga katta ahamiyat beryapti. Bu sanoat mahsulotlari uchun nafaqat ichki, balki tashqi bozorlar darajasida ham samarali vosita bo‘lmoqda.



Tahlil natijalaridan Xorazm viloyati sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Texnologik modernizatsiya. Texnologik modernizatsiya Xorazm viloyati sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Hozirda viloyatdagi ko‘pgina korxonalar eskirgan uskunalar va past samarali ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanmoqda, bu mahsulot sifatini pasaytiradi va xarajatlarni oshiradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar mahsuldarlikni oshirishi, resurslardan samarali foydalanishi va xalqaro bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin. Texnologik modernizatsiya qilishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

2. Kadrlar malakasini oshirish. Malakali kadrlar tanqisligi Xorazm sanoatining asosiy muammolaridan biridir. Texnik va innovatsion sohada mutaxassislarning yetishmasligi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni sekinlashtiradi. Kadrlar malakasini oshirish orqali korxonalar nafaqat mahsuldarlikni oshiradi, balki innovatsion faoliyikni ham rag‘batlantiradi.

3. Eksportni rag‘batlantirish. Xorazm viloyatining qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari, xususan, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lish potentsialiga ega. Biroq, marketing va brendingning zaifligi tufayli mahalliy mahsulotlar yetarlicha tanilmaydi. Eksportni rag‘batlantirish orqali viloyat iqtisodiyoti diversifikatsiya qilinadi va tashqi valyuta tushumi oshiriladi.

4. Yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish. Dunyoda ekologik toza ishlab chiqarishga talab ortib borayotgani Xorazm sanoati uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar nafaqat xalqaro ekologik talablarga moslashadi, balki resurslardan samarali foydalanish orqali xarajatlarni ham kamaytiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar tahlili.

1. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, O‘zbekiston respublikasi Statistika qo‘mitasi axborotnomasi, 2024 y.

2. Miles R.E., Snow C.C., Meyer A.D., Coleman J.H.J. Organizational strategy, structure, and process Academy of Management Review, 3 (3) (1978), pp. 546-562

3. Slater S.F., Olson E.M. Marketing's contribution to the implementation of business strategy: An empirical analysis Strategic Management Journal, 22 (11) (2001), pp. 1055-1067

4. Chan Y.E., Sabherwal R., Thatcher J.B. Antecedents and outcomes of strategic IS alignment: An empirical investigation IEEE Transactions on Engineering Management, 53 (1) (2006), pp. 27.



## МАМЛАКАТИМИЗ КОРХОНАЛАРИДА НОМОДДИЙ АКТИВЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

*Абдухоликова Фарангиз Абдухолик қизи*

Самарқанд иқтисодиёт ва  
сервис институти ходими

**Аннотация** ушбу мақолада бухгалтерия ҳисобининг обьекти бўлган ва тегишли назорат ўрнатилишини талаб этувчи хўжалик маблағларининг янги турларига алоҳида эътибор қаратилган. Корхоналар номоддий активларни ҳар хил йўллар билан сотиб оладилар ва шунга кўра уларнинг кирими ҳам ҳисобда турлича акс эттирилиши бўйича таклиф ва тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** номоддий активлар, техник жиҳатлар, маблағ сифат, ишлаб чиқариш, фойда ҳисоби, патент, кашфиёт, товар маркалари, савдо белгилари, «Ноу-хоу» ишланма, дастур.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются новые виды экономических активов, являющиеся объектом бухгалтерского учета и требующие соответствующего контроля. Предприятия приобретают нематериальные активы разными способами, в связи с чем даются предложения и рекомендации по отражению их доходов в бухгалтерском учете различными способами.

**Ключевые слова:** нематериальные активы, технические аспекты, фонды, качество, производство, учет прибыли, патент, открытие, товарные знаки, торговые марки, разработка «Ноу-хай», программа.

**Abstract:** This article examines new types of economic assets that are the subject of accounting and require appropriate control. Enterprises acquire intangible assets in different ways, and therefore proposals and recommendations are given on how to reflect their income in accounting in different ways.

**Key words:** intangible assets, technical aspects, funds, quality, production, profit accounting, patent, discovery, trademarks, trade marks, development of “know-how”, program.

Иқтисодиётни модернизациялаш бошқариш тизимини такомиллаширишни тақозо қиласди. Ҳозирги кунда мамлакатимизда бошқарув тизимини ислоҳ қилиш корпоротив бошқарувни жорий қилиш, маъмурий бошқарувни оптималлашириш, менежментлик санъатини пухта эгаллаш орқали амалга оширилмоқда.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “корпоратив бошқарувнинг замонавий стандарт ва усулларини жорий этиш, корхоналарни стратегик бошқаришда акциядорларнинг ролини



кучайтириш” вазифасининг қўйилиши ҳам бошқарувни сифат жиҳатдан янги босқичга кўтаришни талаб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” деб номланган асарида “Биринчи – ислоҳатларнинг қай даражада самара бераётганини кўрсатадиган мақсадли дастурларни амалга ошириш натижадорлиги. Булар қаторида саноат ва бошқа тармоқларни ривожлантиришнинг қуидаги иқтисодий ва молиявий кўрсаткичларини келтириш мумкин: ишлаб чиқариш қувватларининг аҳволи, харажатларни ва таннархни пасайтириш, маҳаллийлаштириш ва рентабеллик даражаси, маҳсулот рақобатдошлигини сўзсиз ошириш”<sup>22</sup> деб қайд этдилар. Бундан кўриниб турибдики, бухгалтерия ҳисоботларида акс эттириладиган ишлаб чиқариш қувватларининг аҳволи, харажатлар ва таннарх, маҳаллийлаштириш ва рентабеллик даражаси каби кўрсаткичлар бугунги кунда ўта муҳим аҳамият касб этишини алоҳида таъкидлаш лозим. Бу масалалар бошқарув ҳисобининг асосий объектлари ҳисобланади.

Ўзбекитон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида “Иқтисодиёт – бу ҳисоб-китоб дегани. Ҳар бир ишимизда пухта ҳисоб-китоб биринчи ўринда туриши лозим. Акс ҳолда, хамма ишимиз эски ҳаммом, эски тос бўлиб қолаверади”<sup>23</sup> – деб таъкидлаганлари ҳам бухгалтерия ҳисоб-китоб ишларини замонавий даражага кўтаришни кўзда тутади.

Бугунги кунда бухгалтерия ҳисобининг обьекти бўлган ва тегишли назорат ўрнатилишини талаб этувчи хўжалик маблағларининг янги турлари пайдо бўлмоқда. Бозор ислоҳотларининг чукурлаштирилиши ва иқтисодиётнинг эркинлаштирилиши туфайли корхоналар, фирмалар ва акциядорлик жамиятларининг хўжалик юритиш амалиётида мулкчилик ва муомалаларнинг янгича турлари кириб келмоқда. Булардан бири номоддий активлардир.

Номоддий активларни ҳисобда рўйхатга олишнинг техник жиҳатларини текшириш жуда муҳим ҳисобланади. Номоддий активлар ўз номига кўра моддий негизга эга бўлмаганликлари учун корхонада у ёки бу обьектнинг ҳақиқий кирими ва ишлатилиши устидан бухгалтерлик назоратини ташкил этиш муаммоси тез-тез вужудга келади.

Бухгалтерлик ҳисобининг умумий принципларига кўра ҳар қандай номоддий актив кирими тегишли дастлабки ҳужжатлар асосида расмийлаштирилади. Бундай дастлабки ҳужжатлаштириш ўзининг мазмуни ва тавсифига кўра, асосий воситаларни қабул қилиш-топшириш далолатномаси (АВ-1) каби ҳужжатларга ўхшаш бўлиши лозим. Ҳужжатларда обьектларнинг

<sup>22</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак., 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017, -26 б.

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 23 декабрь. №258. 3-бет.



батофсил хусусиятлари, дастлабки қиймати, фойдаланишга топширилган вақти, эскириш нормаси ва харажатга олиб бориш коди, номоддий актив фойдаланадиган бўлинма ва бошқа маълумотлар кўрсатилиши лозим.

Номоддий активларни кирим қилишда дастлабки хужжатлар билан бирга уларни индентификацияловчи (айнан ўхшатувчи) хужжатлар ҳам бўлиши зарур. Бундай хужжатларга номоддий активларнинг ўзларини ёки улардан фойдаланишни тавсифловчи хужжатлар, шунингдек, корхонанинг у ёки бу мулкий ҳукуқини тасдиқловчи хужжатлар киради. Бошқача қилиб айтганда, бухгалтерлик ҳисобда акс эттириладиган номоддий активларнинг исталган обьекти обьектив шаклда мавжуд бўлиши лозим.

Саноат намуналари ва кашфиёт ҳукуқларини сотиб олиш патентлар, гувоҳномалар билан тасдиқланади. Корхона томонидан ҳар қандай муаллифлик ҳукуқларини сотиб олиш фақат ушбу муаллифлик ҳукуқларини сотувчилар жисмоний ёки юридик шахслар билан тузилиб, юридик жиҳатдан кучга кирган тўлақонли шартномага асосан амалга оширилиши мумкин.

Корхона «ноу–хоу» сотиб олишни расмийлаштириши учун унинг оғзаки (матнли) ёки тасвирий тавсифига эга бўлиши лозим. Корхона рақобат шароитида саноат ва интеллектуал мулкларни муҳофаза қилиш учун чоратадбирларни кўриши лозим. Бу номоддий активлар обьектларнинг ҳар бири учун конкрет ходимларни жавобгарликка тортиш ва кўрилган заарни тўлиқ қоплаш учун имкон яратади.

Корхоналар номоддий активларни ҳар хил йўллар билан сотиб оладилар ва шунга кўра уларнинг кирими ҳам ҳисобда турлича акс эттирилади.

Номоддий активлар корхона устав капиталига иштирокчиларининг ҳиссаси сифатида қўшилиши мумкин. Бунда улар имкон қадар ҳақиқий бозор баҳосига яқинлашган ва корхона акциядорлар кенгаши (бошқаруви) ва акциядорлар томонидан белгиланган шартнома баҳосида киримга олинади.

«Маҳсулот (иш, хизмат) лар таннархига киритиладиган маҳсулот ишлаб чиқариш (иш, хизмат) ва реализация харажатларининг таркиби ва молиявий натижаларни шакллантириш тартиби ҳакида Низом»га мувофиқ технологияларни такомиллаштириш ва янгиларини яратиш, шунингдек, илмий-тадқиқот ва тажриба - конструкторлик ишларини ўтказиши билан боғлиқ маҳсулотлар сифатини яхшилаш, хом ашё ва материалларнинг янги турларини яратиш, ишлаб чиқаришни қайта жиҳозлаш харажатлари 9420-«Маъмурий харажатлар» счётида акс эттирилади. Агар корхона қандайдир ишлаб чиқариш ва интеллектуал мулк (патентлар, гувоҳномалар) яратса, ушбу «Низом» дан келиб чиқсан ҳолда, уларни мулк сифатида ҳисобга олиб бўлмайди, чунки уларни яратиш билан боғлиқ харажатлар капиталлашмайди.

Ушбу савол масаласида турли мамлакатларда қарама - қарши фикрлар мавжуд. Масалан, айrim мамлакатларда номоддий активлар маблағ сифатида инобатга олинмайди, уларни дарҳол ишлаб чиқариш сарфлари ёки фойда ҳисобига ҳисобдан чиқариш кўзда тутилган. Аммо, бундай ёндошувга қарама-қарши гумон патентлар олиш ва кашфиётлар, товар маржалари, савдо белгилари, «Ноу-хоу» ишланмалари ва дастур таъминотларини яратиш билан



боғлиқ илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишлари (ИТТКИ) каби активларни дарҳол ҳисобдан ўчириш, давр оралиғида оладиган даромадларни бузиб қўрсатишга олиб келади ва корхоналар томонидан ушбу фаолият соҳасига маблағлар сарфлашни тўхтатиб турадиган омил бўлиб ҳисбланишидан иборат.

Агар номоддий активларни яратиш билан боғлиқ харажатларни дарҳол ҳисобдан ўчириш фикрига қўшиладиган бўлсак, унда бизнинг корхоналаримизда бундай харажатларга энг оз миқдорда маблағ ажратилиб, республикамиз худудида ишлаб чиқариш ва интеллектуал мулкни (корхонанинг ўз ишлаб чиқаришини) умуман пасайишига олиб келади, корхоналар эса ўзларининг мулкий ҳуқуқлари (номоддий активлари)ни яратмасдан, хориждан сотиб олишга харажат қиласидар.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак., 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017, -26 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 23 декабрь. №258. 3-бет.
3. Жўраев Н., Бобоҷонов О., Абдуваҳидов Ф., Сотволдиева Д. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Дарслик. -Т.: 2007 й
4. Ташназаров С.Н. Бошқарув ҳисоби. Маъруза матни. 1-қисм. СамИСИ, 2010.
5. Ташназаров С.Н. Бошқарув ҳисоби. Маъруза матни. 2-қисм. СамИСИ, 2010.
6. К.Б. Уразов. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. Тошкент. 2019 й.
7. Хасанов Б.А., Хошимов А.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Шарқ», 2011й.
8. Хасанов Б. А. Амалий бошқарув ҳисоби. ТДИУ. Тошкент. 2016
9. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби. /Дарслик – Т.: Иқтисод-молия, 2005.–307 б
10. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт.-Т.: “Молия” нашриёти, 2003.



## КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИДА НОМОДДИЙ АКТИВЛАР ҲИСОБИННИНГ ЎРНИ

*Тошназаров Самиддин Низамович*

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
“Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси мудири,  
профессор

*Абдухоликова Фарангиз Абдухолик қизи*

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
ходими

**Аннотация** ушбу мақолада корхоналар фаолиятида номоддий активлар ҳисобда ва ҳисоботда акс эттириш масалалариға сезиларли даражада эътибор қаратилган. Моҳиятига кўра номоддий активлар қаторига жисмоний шаклга эга бўлмаган, лекин корхона фаолиятида унинг бошқа активлари қаторида қатнашиб даромад келтирувчи маблағлар киритилиши асосланган.

**Калит сўзлар:** меъёрий ҳужжатлар, амалий тажриба, номоддий активлар, патентлар, лицензиялар, савдо маркалари, савдо белгилари, муаллифлик хукуқлари.

**Аннотация** В статье значительное внимание уделено вопросам учета и отчетности по нематериальным активам в деятельности предприятий. Суть его заключается в отнесении к нематериальным активам средств, не имеющих материальной формы, но участвующих в деятельности предприятия в составе его прочих активов и приносящих доход.

**Ключевые слова:** нормативные документы, практический опыт, нематериальные активы, патенты, лицензии, товарные знаки, товарные знаки, авторские права.

**Abstract** The article pays considerable attention to the issues of accounting and reporting on intangible assets in the activities of enterprises. Its essence lies in classifying as intangible assets funds that do not have a material form, but participate in the activities of the enterprise as part of its other assets and generate income.

**Key words:** regulatory documents, practical experience, intangible assets, patents, licenses, trademarks, trademarks, copyrights.

Республикамида иқтисодиётнинг бозор муносабатлариға ўтиши туфайли корхона маблағлари ва маблағлар манбаларини, шунингдек, уларнинг харакатини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш услубида ҳам сезиларли ўзгаришлар рўй берди. Бухгалтерия ҳисобининг обьекти бўлган ва тегишли назорат ўрнатилишини талаб этувчи хўжалик маблағларининг янги турлари пайдо бўлди. Бозор ислоҳотларининг чукурлаштирилиши ва иқтисодётнинг эркинлаштирилиши туфайли корхоналар, фирмалар ва акциядорлик



жамиятларининг хўжалик юритиши амалиётида мулкчилик ва муомалаларнинг янгича турлари кириб келмоқда. Булардан бири номоддий активлардир.

Номоддий активларга патентлар, лицензиялар, «ноу-хоу», савдо маркалари, товар белгилари, саноат намуналари, дастурий таъминот, гудвилл, ташкилий харажатлар, франшизалар, муаллифлик ҳуқуқлари, ер ва табиий ресурслардан фойдаланиш ҳуқуқлари, хизмат кўрсатиш белгилари ва бошқалар киради.

Ташки иқтисодий муносабатларнинг ривожланиши, қўшма корхоналар ва акциядорлик жамиятларининг ташкил этилиши сабабли номоддий активлар ҳисоби ва аудити олдига муайян талаблар қўйилмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бу соҳада бир қанча масалалар ҳозирги кунда ўз ечимини кутмоқда, ҳалқаро тажриба суст ўрганилмоқда. Иккинчи томондан, номоддий активлар ҳақиқатан, ҳатто дунё амалиёти учун ҳам мураккаб ва хилма-хил тушунча бўлиб, хусусан уларни ҳисобга олиш ва ҳисботда акс эттириш ҳамда аудиторлик текширувидан ўтказиш бўйича ягона ҳалқаро ва миллий стандартларнинг йўқлиги ҳамда бу муаммолар бўйича давом этиб келаётган принципиал келишмовчиликлар бундан далолат беради.

Хусусан, бизнинг республикамизда ҳам номоддий активларни аудиторлик текширувидан ўтказиш бўйича услубий кўрсатмалар ҳали ишлаб чиқилмаган.

Ҳозирги кунда номоддий активларни ҳисобда ва ҳисботда акс эттириш масалаларига сезиларли даражада эътибор қучайди. Булар иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши ва чет эл инвестицияларининг қўплаб жалб қилиниши, молия бозорларининг ривожланиши; жаҳон иқтисодиётида яккаҳокимлик учун рақобатли курашнинг кучайиши, фан-техника тараққиётининг жадаллашиши ва мураккаблашуви каби жаҳон иқтисодий тараққиёти умумий тенденцияларининг қонуний оқибати ҳисобланади.

Мавжуд меъёрий ҳужжатлар ва амалий тажрибага таянган ҳолда номоддий активлар аудитини қўйидаги тартибда ўтказиш мақсадга мувофиқдир: ҳисоб обьектларининг номоддий активлар қаторига тўғри киритилганлиги, интеллектуал мулк, саноат намуналари ва шунга ўхшашлар учун корхонага мулкий ҳуқуқ берадиган ҳужжатларни таҳлил қилиш, ҳужжатларда акс эттирилган қиймат кўрсаткичларини ўрганиш, номоддий активлар кирими, эскириш ҳисоблаш ва ҳисобдан чиқарилишига доир муомалаларнинг бухгалтерлик ҳисобида тўғри акс эттирилиши; номоддий активларнинг ҳақиқатда мавжудлигини инвентаризация қилиш; номоддий активларни ҳисобга олиш ва унинг ҳуқуқий жиҳатдан тўғри расмийлаштирилганлиги ҳақидаги холосаларни умумлаштириш ва аниқланган хато камчиликларни тузатиш бўйича тадбирлар белгилаш.

Моҳиятига кўра номоддий активлар қаторига жисмоний шаклга эга бўлмаган, лекин корхона фаолиятида унинг бошқа активлари қаторида катнашиб даромад келтирувчи маблағлар киритилади.

Патентлар, лицензиялар, савдо маркалари, савдо белгилари, муаллифлик ҳуқуқлари каби номоддий активларнинг моҳияти Ўзбекистон



Республикасининг тегишли юридик қонунлари билан тартибга солиб турилади.

Номоддий активларнинг ўзига хос белгилари қўйидагилардан иборат:

- буюмлашган қўринишга эга эмаслиги;
- узоқ вақт давомида ишлатилиши;
- корхонага фойда келтириш;
- уларни ишлатишдан олиниши мумкин бўлган фойда ҳажмининг нисбатан юқори даражадаги ноаниклиги.

Номоддий активларнинг моҳиятига кўра хусусиятларини кўриб чиқамиз: саноат интеллектуал мулк объектларига қашфиёт ҳукуқи, саноат намуналари, товар белгилари, савдо маркалари, хизмат кўрсатиш белгилари киради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Жўраев Н., Бобожонов О., Абдуваҳидов Ф., Сотволдиева Д. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Дарслик. -Т.: 2007 й
2. Ташибазаров С.Н. Бошқарув ҳисоби. Маъруза матни. 1-қисм. СамИСИ, 2010.
3. Ташибазаров С.Н. Бошқарув ҳисоби. Маъруза матни. 2-қисм. СамИСИ, 2010.
4. К.Б. Уразов. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. Тошкент. 2019 й.
5. Хасанов Б.А., Хошимов А.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Шарқ», 2011й.
6. Хасанов Б. А. Амалий бошқарув ҳисоби. ТДИУ. Тошкент. 2016
7. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби. /Дарслик – Т.: Иқтисод-молия, 2005.–307 б
8. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт.-Т.: “Молия” нашриёти, 2003.



## HUDUDLARDA INNOVATSION INFRATUZILMALARNI BOSHQARISH USULLARI

**Salayeva Lobar Ulug‘bek qizi**  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti Biznes va  
boshqaruv kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hududlarda innovatsion infratuzilmalarni boshqarish usullari va ulardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Hudud, infratuzilma, innovatsion infratuzilma, boshqarish, usul.

Hududlarda innovatsion infratuzilmalarni samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion infratuzilmalar hududda yangi g‘oyalalar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini amaliyatga joriy etishga xizmat qiladigan tashkilotlar, markazlar va resurslar tizimidir. Bu borada unga xos bo‘lgan mexanizmni yaratish maqsadi uning barcha ishtirokchilarining samarali o‘zaro ta’sirini shakllantirish assosida mintaqqa innovatsion salohiyatini rivojlantirishda sinergetik ta’sirni ta’minlashdir [1]. Ularni samarali boshqarish hududiy rivojlanishni tezlashtirish, ish o‘rinlari yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda investitsiyalarni jalg etishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Infratuzilma loyiҳalarini amalga oshirish zamonaviy rivojlanish talablariga javob berishi hamda mahsulotlar texnik darajasi va sifatini oshirish, mahsulotlarning yuqori raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish yo‘lidan borishi kerak [2].

Hududlarda innovatsion infratuzilmalarni samarali boshqarishdagi asosiy usullari qatoriga strategik rejalshtirish, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion klasterlarni tashkil etish, loyiҳaviy boshqaruv, raqamli platformalardan foydalanish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabilar kiradi. Bunda mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar, ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, innovatsion infratuzilmalarning samaradorligini ta’minlash uchun normativ-huquqiy baza, moliyalashtirish mexanizmlari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish zarur. Hududlar xususiyatlarini hisobga olgan holda hudud uchun alohida boshqaruv yondashuvi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Undan tashqari, hududlarda innovatsion infratuzilmani boshqarishning ayrim usullariga quyidagi usullar kiradi:

- strategik boshqaruv. Ushbu yondashuv tajriba va chuqur bilimga asoslangan innovatsion g‘oyalarga asoslangan bo‘lib, rivojlanish strategiyasining paydo bo‘lishini boshlaydi;

- davlat-xususiy sheriklik. Ushbu mexanizm infratuzilmani rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri moliyaviy resurslarni jalg etishni hal qilish imkonini beradi;

- innovatsion rivojlanish sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun platforma-



markazni yaratish. Bu mintaqani qo'lllab-quvvatlashning eng muhim chora-tadbirlaridan biridir;

- innovatsion rivojlanish darajasini baholash. Bunday yondashuvlar innovatsion rivojlanish strategiyasini aniqlash va innovatsion siyosatni tuzatish imkonini beradi;

- xalqaro hamkorlar bilan tajriba almashish. Bu innovatsion kompaniyalar rivojlanishining yana bir jihat bo'lib qaraladi.

Avvalo, innovatsion infratuzilmani boshqarishda har bir hududning xususiyatlarni, uning ixtisoslashuvi va iqtisodiyotini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion infratuzilma obektlariga, masalan, texnoparklar, maxsus iqtisodiy zonalar, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi markazlarini tashkil etish kiradi.

Darhaqiqat, hududlarda innovatsion infratuzilmalarni boshqarish usullari bugungi kunda jadal rivojlanayotgan va muhim ahamiyatga ega bo'lган sohaga aylangan. Ushbu infratuzilmalar ilm-fan, texnologiya va tadbirdorlikni bir-biriga bog'lab, yangi g'oyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishini rag'batlantirishga qaratiladi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

### 1) Strategik rejorashtirish va vizyonni shakllantirish:

- **hududiy innovatsion strategiya:** Har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlari, kuchli va zaif tomonlari hamda rivojlanish istiqbollariga asoslangan aniq innovatsion strategiya ishlab chiqilishi lozim. Ushbu strategiya hududning ilmiy, texnologik va iqtisodiy maqsadlarini birlashtirishi kerak.

- **uzoq muddatli choralar:** Kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi uzoq muddatli choralar shakllantirish zarur. Bu esa hudud innovatsion salohiyatini qanday oshirish va jahon bozori uchun raqobatbardosh mahsulotlar yaratishni ko'rsatishi kerak.

- **sohaviy fokuslash:** Hududning eng rivojlangan va kelajakda rivojlanishi mumkin bo'lган sohalariga (IT, biotexnologiya, yashil texnologiyalar va muqobil energiya) e'tibor qaratish va shu sohalarda infratuzilmani rivojlanish kerak.

### 2) Multisektor hamkorlik va ekosistemani yaratish:

- **Davlat-xususiy sektor hamkorligi:** Davlatning moliyalashtirish, huquqiy-normativ baza yaratish va strategik yo'nalishlarni belgilashdagi roli, xususiy sektorning esa innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish va bozorda joriy etishdagi faolligi samarali hamkorlikni talab qiladi.

- **ilmiy-ta'lif muassasalari va tadbirdorlikni bog'lash:** Universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va tadbirdorlik subektlari o'rtaida uzviy aloqalar o'rnatish lozim. Bu tadqiqot natijalarining tijoratlashtirilishi, talabalarning amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi va startap-kompaniyalar paydo bo'lishi uchun zarur bo'ladi.

- **venchur fondlar va investorlarni jalb etish:** Innovatsion loyihibar uchun zarur bo'lган moliyaviy resurslarni ta'minlash maqsadida vechur fondlar, xususiy investorlar va xorijiy kompaniyalarni jalb etish zarur.



- **inkubatorlar va akseleratorlar:** Yangi g‘oyalarni rivojlantirish, startap-kompaniyalar uchun zarur infratuzilma (ofis maydonlari, maslahatlar, mentorlik va moliyaviy yordam) yaratish lozim.

### 3) Innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish va boshqarish:

- **texnoparklar va innovatsion markazlar:** Tadqiqot va ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan zamonaviy texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etish talab etiladi. Bu yerda tadqiqotchilar va tadbirdorlar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari va resurslardan foydalanishlari mumkin.

- **Raqamli infratuzilmalar:** Yuqori tezlikdagi internet, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt va boshqa raqamli platformalarni yaratish kerak. Bu ma’lumotlar almashinuvini tezlashtiradi va yangi xizmatlar rivojlanishiga yordam beradi.

- **moddiy-texnik bazani yangilash:** Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, sinov markazlari va prototiplash texnologiyalarini zamonaviy uskunalar bilan ta’minalash lozim.

- **intellektual mulkni himoya qilish:** Tadqiqot natijalari va innovatsion g‘oyalarni himoya qilish uchun qonunchilikni takomillashtirish va tegishli mexanizmlarni yaratish lozim.

### 4) Iqtidorlarni rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash:

- **Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish:** Zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash va mayjud kadrlar malakasini oshirish dasturlarini joriy etish lozim.

- **Mentorlik va konsalting:** Tajribali mutaxassislar tomonidan yosh tadbirdorlar va ilmiy xodimlarga mentorlik va konsalting xizmatlari ko’rsatish zarur bo’ladi.

- **g‘oyalarni qo’llab-quvvatlash:** Innovatsion g‘oyalarni aniqlash, rag‘batlantirish va ularni hayotga tatbiq etishda yordam berish uchun grant dasturlari va tanlovlardan tashkil etish lozim.

- **tadqiqotchilar va ishbilarmonlar uchun motivatsiya:** Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish uchun mukofotlar, imtiyozlar va boshqa rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish talab etiladi.

### 5) Normativ-huquqiy baza va davlat qo’llab-quvvatlovi:

- **Innovatsiya qonunchiligini takomillashtirish:** Innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi va qo’llab-quvvatlovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yangilash zarur.

- **soliq imtiyozlari va preferensiyalar:** Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarga soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalarini va boshqa imtiyozlar berish lozim.

- **davlat xaridlarida innovatsion mahsulotlarni ustunlikka qabul qilish:** Davlat organlari tomonidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarda mahalliy innovatsion mahsulotlarga ustunlik berish talab etiladi.

- **Moliyaviy resurslarni ajratish:** Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat budgetidan mablag‘ ajratish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish zarur bo’ladi.

### 6) Monitoring va baholash:



- **samaradorlikni o‘lchash:** Innovatsion infratuzilmalar va ularning faoliyatining samaradorligini aniqlash uchun aniq ko‘rsatkichlar belgilash va muntazam monitoring olib borish lozim.

- **o‘rganish va takomillashtirish:** Olingen natijalarga asoslanib, boshqaruvin usullarini doimiy ravishda takomillashtirish va xorijiy tajribani o‘rganish kerak.

Xulosa qilib aytganda, hududlarda innovatsion infratuzilmalarni boshqarish samaradorligini oshirish mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va uning jahon innovatsion maydonida munosib o‘rin egallashini ta’minlaydi. Biroq, hududlarda innovatsion infratuzilmalarni boshqarish shunchaki ob’ektlar yaratish emas, ya’ni harakatlanuvchi, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi va yangi imkoniyatlar yaratuvchi murakkab ekosistemani barpo etish e’tiborga olinadi. Ushbu jarayonda barcha manfaatdor tomonlar faol ishtiropi, doimiy hamkorlik va moslashuvchan boshqaruvin usullari muhim rol o‘ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тараксина Ю.В., Шендо М.В., Гордиенко С.О. Формирование эффективного механизма управления инновационным развитием региона. // Вестник Астраханского Государственного Технического университета, Серия: Экономика, №2, 2021.

2. Бахтина С.С., Парахина Л.В. Современные методы управления инновационными инфраструктурными проектами на региональном уровне. // [Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки](#), 2014. - с. 134.



## «СИСТЕМА МАХАЛЛИНСКОЙ РАБОТЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ»

Косимжонов Нозимжон Козимжон угли  
ИП ООО «Anglesey Food»

Система махаллинской работы в Узбекистане имеет многовековую историю и представляет собой не только форму местного самоуправления, но и уникальный социальный институт, глубоко укоренённый в традициях народа. В древности махалла выступала объединением семей под руководством аксакала, выполнявшим функции организации хозяйственного уклада, общественной взаимопомощи, регулирования быта и воспитания молодёжи. Исторические источники, включая труды Наршахия, Махмуда Кашгари и Алишера Навои, упоминают махаллу как своеобразный «городок в городе» и место проживания ремесленников и торговцев.

В советский период роль махаллы была во многом ограничена централизованной властью, однако она сохраняла значение в поддержании общественного порядка, организации культурных мероприятий и обеспечении взаимопомощи между жителями. С обретением независимости Узбекистаном институт махалли впервые был закреплён на конституционном уровне (1992 г.), а в 1993 году принят закон «Об органах самоуправления граждан». В дальнейшем правовая база неоднократно совершенствовалась, включая новые редакции закона 1999 и 2013 годов.

Постепенно развитие махаллинской системы стало опираться на комплекс нормативно-правовых актов, указов Президента и постановлений Кабинета Министров. Так, программа «Год благоустроенной махалли» (2003) была направлена на укрепление материальной базы, создание новых рабочих мест, поддержку малообеспеченных семей и развитие инфраструктуры. Важным этапом стало принятие Постановления №152 от 19 марта 2021 года, которое впервые внедрило современные инструменты управления на местах — «паспорт махалли», выявление точек экономического роста, стимулирование предпринимательства, поддержку стартапов и развитие кооперации. Президентские указы 2021–2023 годов определили дальнейшие приоритеты, среди которых — развитие семейного бизнеса, сокращение бедности, расширение социальных услуг на уровне махалли и повышение её роли как первой инстанции в решении проблем населения.

Сегодня махалла функционирует как базовое звено общественного управления, где реализуются культурные, социальные, экономические и воспитательные инициативы. Внедрена система «махалла семёрки», в которую входят хоким ёрдамчиси, председатель махалли, молодёжный лидер, активист женщин, инспектор профилактики, социальный работник и налоговый



инспектор, деятельность которых координируется Ассоциацией махалл. Основными направлениями их работы стали содействие занятости и развитию предпринимательства, поддержка женщин и молодёжи, профилактика правонарушений, укрепление семейных ценностей, а также благоустройство и улучшение экологической ситуации.

При этом сохраняется ряд проблем, среди которых — неэффективное использование выделенных земель, недостаточная вовлечённость молодёжи в предпринимательскую деятельность из-за налогового давления и ограниченности стартового капитала, а также институциональные трудности, возникшие после ликвидации «Центров махаллинской работы и развития предпринимательства». Для координации усилий на государственном уровне в 2021 году было создано Агентство по развитию махаллинской работы и предпринимательства, объединившее деятельность хокимов-помощников, государственных органов и самих жителей. За 2022–2023 годы достигнуты ощутимые результаты — расширен доступ к кредитам для семейного бизнеса, развиваются малые производства, совершенствуется инфраструктура, осуществляется адресная поддержка семей, включённых в «Железную», «Женскую» и «Молодёжную» книги. Вместе с тем сохраняются вызовы, связанные с недостаточной эффективностью мониторинга, разрывом между центром и местными уровнями управления, а также сложностями практической реализации кооперативных форм в сельском хозяйстве.

Таким образом, система махаллинской работы прошла путь от традиционного института самоуправления до современного механизма реализации государственной социальной и экономической политики. Независимый Узбекистан придал махалле юридический статус и значительно расширил её возможности в решении местных проблем. Современные реформы ориентированы на снижение бедности, развитие предпринимательства и расширение системы социальной поддержки. Вместе с тем для дальнейшего совершенствования необходимы укрепление правовой и финансовой базы махалли, системная подготовка кадров, повышение эффективности мониторинга и контроля, а также решение вопросов занятости молодёжи и рационального использования земельных ресурсов. Всё это постепенно превращает махаллу в ключевое звено диалога между государством и обществом, обеспечивающее устойчивое развитие на местах.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАРBO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK  
КОМПЕТЕНСИЯСИНІ ШАКЛЛАНТИРИШНІҢ ТАРКИБІЙ АСОСЛАРЫ

Dilafruz Sarimsakova,  
Namangan davlat universiteti dotsenti

**Annotation:** Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning tarkibiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida motivatsion, kognitiv, amaliy, reflektiv va kommunikativ komponentlarning o'zaro uyg'unligi samarali ilmiy faoliyat uchun muhim omil ekani asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** tadqiqotchilik kompetensiyasi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, motivatsion komponent, kognitiv komponent, amaliy ko'nikmalar, reflektiv fikrlash, kommunikativ kompetensiya.

Hozirgi kunda chet til o'qitish ta'limida tadqiqotchilik kompetensiyasini polimorfik, ya'ni o'zida bir nechta komponentlarni qamrab olgan tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda mahalliy va xorijiy olimlar E.Nabieva, Yu.Komarova, A.Gubaydullin, A.Prosekov, I.Morozova, E. Filatova, A. Kovalenko, E.Zeer, A.Pavlova, A.Symanyuk, T.Hladyuk, M.Zolochevska, Yu. Shapran, O.Shestopal'yuk, V.Gorovaya O.Fetisovalar tomonidan tadqiqotchilik kompetensiyasining tarkibiy qismlarini turlicha talqin qilingan. Shunga qaramay, ko'plab tadqiqotlarda A. Leontyevning faoliyat yondashuvi asosida shakllangan modeliga tayanilgan holda, tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida **kognitiv**, **motivatsion**, **yo'naltiruvchi** va **operatsion** komponentlari qabul qilingan [1]. Ushbu komponentlar bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-amaliy tadqiqotchilik faoliyatini samarali va maqsadli tashkil etishda zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda yuqorida nomlari tilga olingan olimlar tomonidan taklif etilgan tadqiqotchilik kompetensiyasining strukturaviy komponentlari umumlashtirilgan (1-jadvalga qarang):

**1-jadval**  
**Tadqiqotchilik kompetensiyasining strukturaviy komponentlari**

Muallif	Strukturaviy komponentlar
E.Nabieva	motivatsion, kognitiv va faoliyat-operatsion
Yu.Komarova	kognitiv, prognostik va tashkiliy
A.Gubaydullin	qadriyatlarga yo'naltirilgan (ценностно-ориентированный), loyihalovchi-ijodiy (проектно-творческий), subyekt-transformatsion (субъектно-преобразующий) va nazorat-tuzatuvchi kontrolno-korrektiruyuchiy)



A.Prosekov, I.Morozova, E. Filatova	motivatsion, gnoseologik (kognitiv-bilimga oid), amaliy (operatsion) va shaxsiy (reflektiv-baholovchi)
A. Kovalenko	motivatsion-ahloqiy, kognitiv, amaliy-ijodiy
E.Zeer, A.Pavlova A.Symanyuk	hissiy motivatsion, kognitiv, amaliy faoliyatga asoslangan, reflektiv
T.Hladyuk	motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion, reflektiv
M.Zolochevska	funksional-reflektiv, motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-amaliy
Yu.Shapran	qadriyat-motivatsion, kognitiv-faol, shaxsiy reflektiv
O.Shestopalyuk	qadriyat-motivatsion, kognitiv, shaxsiy, xulqiy
V.Gorovaya O.Fetisova	motivatsion-aksiologik, kognitiv, faoliyat-operatsion, ijodiy, kommunikativ, reflektiv

Ushbu turfa yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilik kompetensiyasi ko'p qirrali va murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibiy qismlarini belgilashda pedagogik, psixologik, aksiologik va metodologik mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda bu komponentlar integrativ yondashuv asosida qo'llanilishi zarur.

Tahliliy yondashuv assosida aniqlanishicha, talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasi motivatsion, kognitiv, amaliy, reflektiv, va kommunikativ komponentlar orqali shakllanadi. Quyida tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy komponentlarini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari misolida izohlaymiz.

**Motivatsion komponent-** bo'lajak o'qituvchining tadqiqotchilik faoliyatga nisbatan ichki ishtiyoqi, izlanishga bo'lgan qiziqishi, kasbga fidoyiligi, yangilikka intilishi orqali namoyon bo'ladi. U o'z kasbiy o'sishini o'quv tadqiqotlar bilan bog'laydi, ilm-fan taraqqiyotining ijtimoiy ahamiyatini anglaydi va shaxsiy qadriyat darajasiga olib chiqadi. Masalan, ingliz tili o'qituvchisi sifatida til o'rganish jarayonidagi dolzarb metodik muammolarni mustaqil o'rganishga intilish — motivatsion-qadriyatli yondashuvning ko'rinishidir.

**Kognitiv komponent-** o'qituvchining tadqiqot jarayonida zarur bo'lgan bilimlarni egallaganligi bilan bog'liq. Bu komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dolzarb tadqiqot yo'nalishlari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- ilmiy-amaliy tadqiqot metodlari va metodologiyasini bilish;
- o'z tadqiqotining obyekti, predmeti, maqsadi, gipotezasi va vazifalarini aniqlay olish;
- tanlangan soha bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish.

Ingliz tili o'qituvchisi uchun bu, masalan, til o'rganishda psixolingvistik yondashuvlarni o'rganish yoki kommunikativ metodikani empirik jihatdan tekshirish kabi faoliyatlarni anglatadi.

**Amaliy komponent-** bo'lajak o'qituvchining tadqiqot faoliyatini amalgaloshirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarini o'z ichiga oladi:

- tadqiqot bosqichlarini rejalshtirish;
- eksperimentlarni tashkil qilish va natijalarni qayd etish;
- statistik tahlil va texnologiyalardan foydalanish;



- tadqiqot natijalari bo'yicha maqolalar yozish va ommalashtirish.

I.Zimnyaya tasnifiga ko'ra, tadqiqotchilik kompetensiyasining kognitiv komponenti bir nechta ko'nikmalarni qamrab oladi. Unga ko'ra, 1) **intellektual-tadqiqot ko'nikmalari** –muammoni topish, gipoteza ilgari surish, ma'lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot uchun to'g'ri uslubni tanlash; 2) **axborot bilan ishslash ko'nikmalari** – kuzatish olib borish, kerakli ma'lumotlarni yig'ish, ilmiy manbalarni tushunish va ularni izohlash; 3) **amaliy ko'nikmalar** –tajriba o'tkazish, adabiyotlar bilan ishslash, ma'lumotlarni umumlashtirish, maqola yozish va ma'ruza tayyorlash [2]. Bu ko'nikmalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga mustaqil ilmiy ish olib borishda yordam beradi.

**Reflektiv komponent** - shaxsning o'z ilmiy-amaliy faoliyatini tahlil qilish, baholash va doimiy takomillashtirishga intilishida ifodalanadi. Bu komponent quyidagi ko'nikmalarda namoyon bo'ladi:

- o'z faoliyati natijalarini baholash;
- muammolarga tanqidiy yondashish;
- tahliliy fikrlash asosida takomillashtirish yo'llarini aniqlash;
- o'z ustida ishslashga tayyorlik.

Bo'lajak o'qituvchi darsdan so'ng tajriba natijalarini tahlil qilishi, xatoliklarni aniqlashi va keyingi darslar uchun strategiyalar ishlab chiqishi reflektiv yondashuvning ko'rinishidir.

**Kommunikativ komponent**-tadqiqotchilik faoliyatida samarali muloqot qilish, fikr bildirish, ilmiy jamoalarda ishslash, o'z pozitsiyasini asoslab berish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, kommunikativ komponent quyidagilarni qamrab oladi: turli baxsli munozaralarda qatnashish; fikr almashishda ochiqlik va muloqot yuritish; tadqiqot natijalarini taqdim etish, publisistik va akademik nutqni rivojlantirish. Masalan, ingliz tili o'qituvchisi o'z tajribasini xalqaro, mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdim qilishi yoki yozma maqola orqali ommalashtirishi mumkin.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish – bu murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan, ko'p komponentli jarayondir. Har bir komponent – motivatsion, kognitiv, amaliy, reflektiv va kommunikativ o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilgandagina samarali natijaga olib keladi. **Mazkur komponentlarni samarali shakllantirishda talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini aniq tamoyillar asosida tashkil etishni talab etadi.**

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А. А., Леонтьев Д. А., Соколова Е. Е. Алексей Николаевич Леонтьев. Деятельность, сознание, личность. – Смысл, 2005.
2. Ismuratova S. I. et al. Model of forming future specialists' research competence //Revista Espacios. – 2018. – Т. 39. – №. 35.
3. Zimnyaya, I. A. (2010) Research activities of students at the university as an object of design in the competence-oriented MEP of HPE. Moscow: YTSPKPS, 38 p
4. Nabieva E.V. (1999). Forming the research competence of the students of the Teacher Training University through a system of special courses on a single program. PhD Thesis. Irkutsk.



5. Губайдуллин А.А. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения. 2011. Диссертация кандидат педагогических наук. Казань.
6. Prosekov, A. Yu., Morozova, I. S., & Filatova, E. V. (2020). A case study of developing research competency in university students. *European Journal of Contemporary Education*, 9(3), 592–602. <https://doi.org/10.13187/ejced.2020.3.592>



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING KASBLARGA BO'LGAN QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALAR VA МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTINING HAMKORLIGI

**Adizova Nilufar Quvondiq qizi**

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi  
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi  
Maktabgacha ta'lif metodisti  
[Adizovanilufar@331gmail.com](mailto:Adizovanilufar@331gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirish jarayonida ota-onalar va maktabgacha ta'lif tashkilotining hamkorligining ahamiyati va samarali usullari muhokama qilinadi. Kasbga qiziqishning to'g'ri va barqaror shakllanishi uchun ota-ona va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati muhimdir. Shuningdek, maqolada ota-onalar bilan ishlashdagi metodlar, kommunikatsiya vositalari hamda maktabgacha ta'linda ota-onalarni jalb qilishning yangi shakllari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lif, ota-ona va maktabgacha ta'lif hamkorligi, kasbga qiziqish, ota-onalar bilan ishslash, bolalar rivoji.

**Abstract:** The article discusses the importance and effective methods of cooperation between parents and preschool education institutions in forming preschool children's interest in professions. For the proper and sustainable development of career interest, the joint efforts of parents and educators are essential. The article also highlights methods of working with parents, communication tools, and new forms of parental involvement in preschool education.

**Keywords:** preschool education, parent-preschool cooperation, career interest, working with parents, child development.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda ota-onalar va maktabgacha ta'lif tashkilotining hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bolalar uchun eng birinchi o'rnatuvchi doira aynan oiladir. Buyuk mutaffakkirlarning oila va ta'lif-tarbiya haqidagi qimmatli so'zları mavjud. Abu Nasr Forobiy o'zining qarashlarida "Bola tarbiyasi avvalo uning oilasida boshlanadi. Oilada nima o'rgatilsa, jamiyatda shuni davom ettiradi." degan fikrni aytib o'tgan. Bu fikrdan kelib chiqib bolalarning kasbga qiziqishlarini shakllanishida ota-onaning roli beqiyos deyish mumkin. Rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Tarbiya berish — o'zingni bolaga ko'rsatishdir." degan fikrlari mavjud, ya'ni ota-ona qanday kasb bilan shug'ullansa, qanday munosabatda bo'lsa, bola shuni o'rganadi. Abdulla Avloniyning juda mashhur fikri bizga meros bo'lib kelmoqda. "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir.". Inson hayotini yo'lga qo'yishda kasb tanlovi tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Konfutsiuning kasbga oid juda ajoyib fikri bor



ya’ni: “O’zingga yoqadigan ish topsang, umr bo‘yi ishlasang ham charchamaysan.”. Bolaga o‘z qiziqishlariga mos kasbni topishda yordam berish ota-onaning ham vazifasidir. Bu qatorni juda uzoq davom ettirish mumkin, barchasida inson hayotida kasbning ahamiyati juda kata ekanligi, kasbni to‘g‘ri tanlash insonni baxtli va saodatli qilishi va buning uchun pedagoglar erta yoshdanoq bolalarni turli kasblar bilan tanishtirib borishi lozimligini anglatadi. Bolani kasb orqali jamiyatga foydali qilib tarbiyalash kerak. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarning kasbiy yo‘nalishini kashf etishda, ularni turli kasblar bilan tanishtirishda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi samarali hamkorlik orqali bolalarning kasblarga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlash, ularni turli kasblar bilan tanishtirish va kelajakdagagi kasbiy yo‘nalishlarini belgilash jarayoni soddalashadi.

### Hamkorlikning ahamiyati

Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati bolalarning ta’lim jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi, ularning qiziqishlarini yanada rivojlantiradi. Ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyatida faol ishtirok etganida, pedagoglar bilan muntazam muloqotda bo‘lsa, bu bolalarning kasbga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida ota-onalar bilan samarali ishslash metodlari keltirilgan:

### Ma’ruzalar va seminarlar

Pedagoglar ota-onalar uchun kasbga qiziqtirish va bolalarning rivojlanishi bo‘yicha muntazam seminarlar o‘tkazishi mumkin. Bu seminarlar ota-onalarga bolalar kasblarga qanday qiziqtirilishi, ularning qiziqishlarini qanday qo‘llab-quvvatlash haqida tushuncha beradi.

### Ochiq darslar va tadbirlar

Ota-onalar uchun ochiq darslar, kasb haftaliklari, o‘yinlar va ko‘rgazmalar tashkil etish orqali ular farzandlarining faoliyati bilan yaqindan tanishadilar va bu jarayonda ishtirok etadilar.

### Individual maslahatlashuvlar

Har bir bola uchun ota-onalar bilan individual suhbatlar o‘tkazilib, ularning bolalarining qiziqishlari va imkoniyatlari haqida ma’lumot almashiladi hamda kelajakdagagi faoliyat rejalshtiriladi.

Kommunikatsiya vositalari Telegram guruhlari, elektron pochta, mobil ilovalar orqali ota-onalar bilan doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish. Bu vositalar yordamida maktabgacha ta’lim muassasasi yangiliklari, maslahatlar va tavsiyalar muntazam yetkazib boriladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizda ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligida yangi shakllarni yaratishimiz mumkin.



Onlayn seminarlar va videomuloqotlar: Zamonaviy texnologiyalar yordamida ota-onalar bilan onlayn muloqotlar o'tkazish imkoniyati.

Ota-onalarning tashabbuslari: Ota-onalar tomonidan kasbga oid maxsus loyihamalar, o'yinlar yoki tadbirlar tashkillashtirishda ishtirok etish.

Ijtimoiy faoliyatda birgalikda ishtirok etish: Mahalla, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish uchun ijtimoiy loyihamalar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi juda muhimdir. Ushbu hamkorlik bolalar qiziqishini to'g'ri yo'naltirish, ularni kasbga oid bilim va ko'nikmalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash bo'yicha takliflar:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish,
- Pedagoglar uchun ota-onalar bilan samarali muloqot bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish,
- Ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalg qilish uchun interaktiv va qiziqarli tadbirlar o'tkazish,
- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O'zbekiston.
2. Tolstoy, L. N. (1984). On Education. — Moscow: Progress Publishers.
3. Takomillashtirilgan ilk qadam o'quv dasturi 2022
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol metodlarni qo'llash usuli. Turdiyeva Izzatoy Sadikovna
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minotini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joriy etish mexanizmlar N.N.Djamilova
6. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАРSUV TA'MINOTI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH  
TENDENSIYALARI

Shohina Pirova Xujmaxmatovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Stajyor o'qituvchisi

[shohina.pirova81@gmail.com](mailto:shohina.pirova81@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda suv ta'minoti xizmatlarini rivojlantirishning dolzarb tendensiyalari, muammolari va istiqbollari chuqur tahlil qilingan. XXI asrda global iqlim o'zgarishi, aholining tez o'sishi, urbanizatsiya darajasining ortishi, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida suvga bo'lgan ehtiyojning ko'payishi suv resurslarini boshqarish va samarali taqsimlash masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu munosabat bilan, tezisimda milliy va xalqaro miqyosda suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Suv ta'minoti, Ichimlik suvi, Suv resurslarini boshqarish, Suv xizmatlari, Texnologik innovatsiyalar, Desalatsiya texnologiyasi, Ultrafiltratsiya.

Kirish. XXI asrda global miqyosda iqlim o'zgarishi, aholining tez sur'atlarda o'sishi, urbanizatsiya va sanoatlashuv jarayonlari suv resurslariga bo'lgan talabning keskin ortishiga olib kelmoqda. Suv inson hayotining asosi bo'lib, uning sifatli va barqaror ta'minoti har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, suv ta'minoti xizmatlarini rivojlantirish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Bugungi kunda suv infratuzilmasining yaroqsiz holga kelgani, resurslardan samarasiz foydalanish, qishloq joylarda markazlashgan ichimlik suvi tizimining cheklangani va xizmatlarning moliyaviy barqarorligi pastligi kabi omillar suv ta'minoti xizmatlari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, viloyatlar va mintaqalar kesimida mavjud nomutanosibliklar bu sohadagi rivojlanish tendensiyalarini o'rganishni taqozo etadi. Bunday tafovutlar ko'plab omillar – tabiiy-geografik sharoit, moliyalashtirish, texnologik imkoniyatlar, boshqaruv salohiyati va aholining joylashuvi bilan bevosita bog'liq. Mazkur tesisda suv ta'minoti xizmatlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, ularni belgilovchi ichki va tashqi omillar, hududiy nomutanosibliklar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekiston uchun mos strategik yo'nalishlar ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi.



Adabiyotlar tahlili: So‘nggi yillarda suv ta’mnoti xizmatlarini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida dolzarb bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda bir qator tendensiyalar alohida o‘rin egallaydi. Xususan, xalqaro miqyosda quyidagi yo‘nalishlar asosiy ilmiy muhokama obyekti bo‘lib kelmoqda: Tadqiqotlarda (World Bank, 2021; OECD, 2022) suv ta’mnoti infratuzilmasini rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanish, chiqindi suvlarni qayta ishlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish asosiy strategik yo‘nalish sifatida ko‘riladi; Suv infratuzilmasida SCADA tizimlari, aqli hisoblagichlar (smart metering), IoT asosidagi monitoring tizimlari keng joriy etilmoqda (Klingel & Nestmann, 2019). Bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yo‘qotishlarni kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy ishda suv ta’mnoti xizmatlarini rivojlantirish tendensiyalarini o‘rganish maqsadida zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar va kompleks tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yondashuv va usullar tanlab olindi: tizimli yondashuv, tahliliy-statistik usul, taqqoslama tahlil, ekspert baholash usuli, iqtisodiy tahlil va modellashtirish, karta va grafik usullar, normativ-huquqiy tahlil.

Tahlil natijalari. Suv ta’mnoti tizimi — aholini, sanoat korxonalarini, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini va boshqa iste’molchilarni zarur miqdorda va belgilangan sifat darajasidagi ichimlik hamda texnik suv bilan uzlucksiz va xavfsiz ta’minlashga qaratilgan muhandislik-kommunikatsiya tizimlari majmuasidir. Bu tizim jamiyat hayot faoliyati, sanitariya-gigiyena, iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Suv ta’mnoti tiziminining asosiy vazifalari:

1. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash
2. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondirish
3. Yong‘inga qarshi xavfsizlikni ta’minlash
4. Ekologik barqarorlikni saqlash

Suv xizmatlarining barqaror rivojlanishi — bu jamiyatning ichimlik va texnik suvga bo‘lgan ehtiyojini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqbul usullarda qondirishga qaratilgan konsepsiadir. U uzoq muddatli istiqbolda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni, kelajak avlodlar manfaatini hisobga olgan holda suv bilan ta’minlash tizimlarining izchil takomillashtirilishini nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish tamoyillari suv ta’mnoti tizimlariga nisbatan quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

1. Ekologik barqarorlik
2. Iqtisodiy barqarorlik
3. Ijtimoiy barqarorlik
4. Institutsional barqarorlik
5. Innovatsion yondashuv

So‘nggi o‘n yilliklarda global miqyosda suv ta’mnoti xizmatlarini rivojlantirish borasida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining keskin o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlari, sanoatning kengayishi va tabiiy resurslar taqchilligi sababli dunyo mamlakatlari suv bilan ta’minlash tizimlarida




barqarorlik, samaradorlik va innovatsion yondashuvlarni joriy qilishga intilmoqda. Jahon tajribasi bu borada bir qator asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatmoqda:

1. Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM).
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
3. Suv xizmatlarining raqamlashtirilishi.
4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining rivojlanishi.
5. Barqaror tarif siyosati va ijtimoiy adolat.
6. Suv sifati va sanitariya standartlarini kuchaytirish.

### 1. Hududlar kesimida suv ta’minoti darajasi

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024-yillar davomida respublikada aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minalash darajasi o‘rtacha 74–78% atrofida bo‘lgan. Biroq bu ko‘rsatkich viloyatlar kesimida keskin farqlanadi:

2024 yilda aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minalash darajasi (%)



Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ba’zi viloyatlarda suv ta’minoti sezilarli darajada past bo‘lib, ayniqsa, janubiy va cho‘l zonasiga yaqin hududlarda ahvol og‘ir qolmoqda.

1. Tarif siyosati va uning iqtisodiy ta’siri. Tarif – suv xizmatining narxidir va u xizmat ko‘rsatish xarajatlarini qoplash, infratuzilmaga investitsiya jalb qilish va aholiga adolatli xizmat ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.



- O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi uchun o‘rnatilgan tariflar ko‘pincha subsidiyalangan bo‘lib, bu aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlasa-da, suv xo‘jaligi korxonalarining rentabelligini pasaytiradi.
- 2025-yil holatiga ko‘ra, aholi uchun ichimlik suvi tarifi o‘rtacha 1 m<sup>3</sup> uchun 900–950 so‘m, yuridik shaxslar uchun esa 2–4 baravar yuqori.
- Past tariflar mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun yetarli daromad keltirmaydi, bu esa tizimni moliyaviy jihatdan zaiflashтирди.

2. Moliyaviy resurslar va ularning samarali boshqaruvi. Suv ta’mnoti tizimining samaradorligi moliyaviy resurslarni qanday jalb qilish va ulardan qanday foydalanish bilan chambarchas bog‘liq.

